



## AHOLIGA MUNOSIB TURMUSH SHAROITI YARATISH - ISLOHOTLARIMIZNING ASOSI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 24-oktabr kuni hududlar rivoji, aholi turmushi bilan tanishish maqsadida Qashqadaryo viloyatiga keldi. Tashrif davomida sanoat korxonalarini, ta'lim va tibbiyot muassasalari faoliyati, mahallalar hayoti bilan tanishildi.



Davlatimiz rahbari butun faoliyati davomida har bir soha bo'yicha bevosita joylarga chiqib, xalq bilan muloqot qilib, aholi hayotidan kelib chiqib ish yuritadi. Mamlakatimiz hududlariga tashriflardan asosiy maqsad — qishloq aholisining turmush darajasini ko'tarish, tumanlarni sanoatlashtirish, ish o'rinlarini ko'paytirish, ijtimoiy sharoitlarni yaxshilash.

Bu jihatlar Qashqadaryo viloyatiga tashrifida ham namoyon. Davlatimiz rahbari dastlab "Sulton Tex Group" klasterining to'qimachilik korxonasi faoliyati bilan tanishdi.

Bu korxonada umumiy qiymati 8 million 200 ming dollarlik loyiha evaziga o'tgan yili ishga tushgan. Zamonaviy texnologiya va uskunalarni samarasida yiliga 5 million dona tikuv-trikotaj mahsulotlari tayyorlash quvvati yaratilgan.

E'tibori, klaster "yangi mahsulot — yangi davlat" prinsipi asosida eksporti yo'lga qo'ygan. Bugungi kunda sifatli tovarlar Amerika Qo'shma Shtatlari, Kanada, Polsha, Singapur, Rossiya kabi mamlakatlarga to'liq eksport qilinmoqda. Daromad, ish unumdorligi ham shunga yarasha yuqori. Klasterda paxta yetishtirish va ishlab chiqarishning to'liq zanjirida 3 mingga yaqin aholi mehnat qilmoqda.

Prezident korxonadagi ish jarayoni bilan tanishdi. Bunday loyihalarning viloyat iqtisodiyoti va aholi bandligidagi ahamiyati haqida fikr bildirildi. Mu-

tasaddilarga bu sohada imkoniyatlar to'liq ishga solinmayotgani ko'rsatib o'tildi.

— Aholi, ayniqsa, qishloq joylardagi odamlarga munosib turmush sharoitlari yaratish islohotlarimizning asosi bo'lishi kerak, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Ma'lumki, eng ko'p paxta Qashqadaryo viloyatida yetishtiriladi. Lekin uni qayta ishlash, tayyor mahsulotga aylantirish hajmi kam. Masalan, mato to'qish va bo'yash yo'lga qo'yilsa, tumanlarda qo'shimcha 60 ming kishini band qilish mumkin.

Shu maqsadda "20 ming tadbirkor — 500 ming malakali mutaxassis" dasturi "Sulton styles" korxonasida ham tatbiq etilmoqda. Amaliy monomarkaz tashkil etilib, ishsiz aholini to'qimachilik kasbiga o'rgatish yo'lga qo'yilmoqda. Bu jarayon ikki bosqichli bo'lib, avval xotinqizlarga korxonadagi texnologiya va asbob-uskunalardan foydalanish, mehnat xavfsizligi qoidalari o'rgatiladi. Keyingi bosqichda ular murabbiylarga birlashtirilib, bevosita ish o'rinlarida amaliy bilim va ko'nikmalarni egallaydi.

Shu yerda davlatimiz rahbariga Shahrisabz, Kitob va Qamashi tumanlarida turizmni rivojlantirish loyihalari taqdimot qilindi. Qishloqlarda infratuzilmani yaxshilab, sayyohlik yo'nalishlariga kiritib, aholi uchun daromad manbalarini kengaytirish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Davlatimiz rahbari tashrif chog'ida reja-dasturlar tarkibida Qarshi tumani tibbiyot birlashtirish korxonasi

Uning binosi o'tgan asrning 60-70 yillarida qurilgan. Shifoxona 228 bemor o'rniga va poliklinika 250 qatnovga mo'ljallangan. Hozirda tumanidagi 243 ming aholiga xizmat ko'rsatadi. Lekin bu yerdagi sharoitlar shuncha qamrov va zamon talabiga mos emas. Ayrim jihozlarni yangilashga zarurat bor.

Prezidentimiz tibbiy bo'limlar va xonalarga kirib, asl ahvolni ko'zdan kechirdi. Bu yerga kelgan bemorlar bilan suhbatlashdi.

Bugun Qashqadaryoga kelishimizdan maqsad viloyatning uch yarim millionlik aholisi turmush sharoitini yaxshilash, og'irini yengil qilish, sanoat, qishloq xo'jaligi, ijtimoiy sohalarini rivojlantirish. Yo'l-dan o'tib ketayotib, shifoxona qanday ekan, deb kirdim. Holatni o'zim ko'rib, oddiy odamlar bilan ko'proq muloqot qilib, qaror qabul qilish — mening eng katta maqsad-muddaom. Avval ham aytganidek, ta'lim bilan tibbiyot sifatli bo'lsa, odamlar rozi bo'ladi. Ko'p joylarda shifoxonalarni yaxshi qildik. Lekin Qarshi tumanidagi sharoit menga ma'qul emas. Bugun ko'rganlarimdan xulosa qilib, bu yerda yangi shifoxona quramiz, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Mutasaddilarga bo'lajak majmua o'rni va loyihasi bo'yicha taklif kiritish vazifasi

si qo'yildi. Kelgusida u eng zamonaviy tibbiy uskunalar bilan jihozlanadi va dori vositalari bilan bepul ta'minlanadi. Tuman tibbiyot birlashtirish korxonasi bir guruh shifokor va hamshiralar xorijga malaka oshirishga yuboriladi. Shu tariqa bu maskan boshqa tuman shifoxonalari xodimlari uchun o'quv-amaliyot markaziga aylanadi.

Shuningdek, tashrif chog'ida kadrlar salohiyatini va tibbiy xizmatlarni sifatini oshirish, shifoxona atrofini tartibga keltirish masalalari ham aytib o'tildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev safar dasturida nazarda tutilmagan manzillar bilan tanishishda davom etdi. Qarshi tumani markazi — Beshkent shahridagi 12-maktab ham rejalashtirilgan holda borib ko'rildi.

Bu yerda ayni paytda 1 ming 400 ga yaqin o'g'il-qiz o'qimoqda. Ularga yuzdan ortiq malakali pedagog ta'lim bermoqda. Maktab o'tgan yili kapital ta'mirlangan. O'quvchilarga bitta kasb-hunar va ikkita xorijiy tilni o'rgatish yo'lga qo'yilgan. Kompyuter savodxonligi, tikuvchilik, duradgorlik kabi to'garaklar bor.

Davlatimiz rahbari sinfonalarni kirib ko'rdi, o'qituvchi va o'quvchilar bilan suhbatlashdi. Maktab sharoitlari, darsliklar sifatini bilan qiziqdi.

Ayni kunlarda yurtimizda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik va ko'chat ekish avjida. Prezidentimiz maktab misolida bu boradagi ishlarni ko'zdan kechirdi. Mutasaddilarga ijtimoiy muassasalarni issiqlik bilan ta'minlash, energiya tejamkor texnologiyalarni qo'llash bo'yicha ko'rsatmalar berildi. O'z navbatida, maktablarining qurilish standartlarini zamonaviylashtirish, bunda infratuzilma bilan ta'minlanganlik, funksionallik va energiya samaradorligi bilan bog'liq barcha mezonlarni nazarda tutish zarurligi ta'kidlandi.

“Yashil makon” loyihasi doirasida maktablar atrofida ko'chat ekish ishlari ham e'tibor qaratildi.

— Maktab bor joyda madaniyat bo'ladir. Pedagoglar boshqalarga har jihatdan o'rnak. Maktab atrofi obod bo'lib, mavsumiy gullar yashnab tursa, yoshlarga ham tarbiya, ham da'vat bo'ladi, — dedi davlatimiz rahbari.

Prezident Shavkat Mirziyoyev viloyatga tashrif davomida Qarshi shahridagi Oydin mahallasida bo'lib, aholi turmushi, hududdagi obodlik va kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik bilan yaqindan tanishdi.

Bu yerda 11 mingga yaqin aholi yashaydi. Hududda ikkita maktabgacha ta'lim tashkiloti, bitta umumta'lim maktabi mavjud. Joriy yilda yana uchta ko'p qavatli uy foydalanishga topshirildi.

Davomi 2-betda

## ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARI VA FAXRIYLARIGA

Hurmatli ichki ishlar tizimi xodimlari! Qadri o'fitter va generallar, serjant va safdorlar!

Muhtaram faxriylar! Avvalo, siz, azizlarni qutlug' kasb bayramingiz — O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari xodimlari kuni bilan chin qalbidan muborakbod etaman.

Ushbu quvonchli ayyomda sizlarning o'z zimmangizdagi g'oyat muhim vazifalarni mas'uliyat bilan ado etib kelayotganingizni alohida ta'kidlashni istardim.

So'nggi yillarda ichki ishlar organlarini chinakam xalqchil tuzilmaga aylantirish, aholi uchun barcha shahar va qishloqlarda xavfsiz yashash va mehnat sharoitini yaratish maqsadida keng ko'lami islohotlar amalga oshirilmoqda. Eng quyi bo'g'indagi vaziyat va muammolarni chuqur o'rganish asosida har qaysi mahallani jinoyatdan xoli hududga aylantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shu maqsadda 350 dan ziyod mahallada huquq-tartibot maskanlari tashkil etildi, 9,5 mingga yaqin mahallada profilaktika inspektorlari faoliyati yo'lga qo'yildi.

Ushbu ishlarining mantiqiy davomi sifatida joriy yildan boshlab "mahalla yetiligi" tizimi tashkil etildi. Endi profilaktika inspektori ana shu tizimning eng faol a'zosi bo'lib, vaziyatni xonadonlar kesimida o'rganadi. Birinchi navbatda, huquqbuzarlik sodir etish yoki undan jabr ko'rish ehtimoli yuqori bo'lgan fuqarolarni aniqlab, ularning ijtimoiy-maishiy muammolarini "mahalla yetiligi" imkoniyatlaridan foydalanish uchun hal etish choralarini ko'radi.

Eng muhimi, joylarda voyaga yetmaganlar va yoshlarning huquqiy ongini oshirish, ularni sog'lom turmush tamoyillari asosida tarbiyalash orqali ijtimoiy jihatdan xavfli xatti-harakatlar sodir etilishining barvaqt oldini olish bo'yicha amaliyot yo'lga qo'yiladi.

Biz Yangi O'zbekiston sharoitida "Barcha islohot va o'zgarishlar — inson qadri yuksaltirish uchun" degan ezgu tamoyilga sodiq qolgan holda, shu yilda boshlagan ishlarni yangi bosqichga ko'tarishimiz zarur. Bu borada o'tgan davrda jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida yaratilgan mustahkam huquqiy bazaga tayanamiz.

Ichki ishlar organlari sohasiga raqamli texnologiyalar, xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalariga asoslangan zamonaviy ish yuritish vositalari, sun'iy intellekt yordamida faoliyat ko'rsatadigan axborot-ma'lumot tizimlari jadal tatbiq etilmoqda. Jamoat joylarida vaziyatni onlayn kuzatish, fuqarolarning murojaatlarini masofadan turib qabul qilish, huquqbuzarliklarni inson omili ishtirokisiz qayd etish amaliyoti bu borada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Aziz do'stlar! Barchamiz yaxshi bilamizki, hamma sohalarida bo'lgani kabi ichki ishlar tizimida ham yuksak malakali, zamonaviy fikrlaydigan, o'z kasbiga, Vatanimiz va xalqimizga sodiq kadrlar islohotlar taqdiri belgilab beradi. Shu ma'noda, mamlakatimiz o'z taraqqiyotining hal qiluvchi bosqichiga ko'tarilayotgan bugungi sharoitda har bir xodimdan yetarli bilimiga ega

bo'lish, muloqot va muomala madaniyatini oshirish, har qanday murakkab vaziyatda ham to'g'ri qaror qabul qilib, zimmasidagi vazifalarni siddiqildan bajarish uchun o'z ustida tinimsiz ishlash talab etiladi. Barchamiz uchun xalqimiz hayoti eng katta maktab ekanini hech qachon unutmaylik. Shu maktabda bilim olib, to'lanib, el-yurt manfaatlarini uchun kurashib yashash — bu eng oliy saodatdir.

Shuning uchun joriy yilda qabul qilingan "Ichki ishlar organlari xodimlari"ning kasbiy madaniyat va xizmat intizomi kodeksi'da ayni shunday qo'ida va tamoyillar soha xodimlari faoliyatining bosh mezonini ekanini qat'iy belgilab qo'yildi. Ishonchm komil, o'z vazifasini halol va vijdonan ado etadigan ichki ishlar organi xodimi el-yurt o'rtasida albatta munosib obro'-e'tibor topadi.

Ma'lumki, keyingi yillarda ichki ishlar organlari uchun professional kadrlar tayyorlash bo'yicha samarali tizim yaratildi. Jumladan, bo'lajak xodimlarni bolaligidan boshlab vatanparvarlik ruhi- ta, yuqori malakali huquqshunos sifatida tayyorlash amaliyoti yo'lga qo'yildi. Har bir xodim navbatdagi unvonni olishi uchun majburiy tarzda kasbiy malakasini oshirishi, rahbarlik lavozimiga tayinlanishi uchun ichki ishlar vazirligi akademiyasining boshqaruvi magistraturasi tahsil olishi belgilangan va bunday tajriba o'z ijobiy samarasini bermoqda.

Hurmatli soha xodimlari! Ichki ishlar organlari faoliyatini takomillashtirish, aholi osoyishtaligini ta'minlashga qaratilgan ishlarimiz bundan buyon ham izchil davom etiriladi.

Xususan, ichki ishlar organlari tomonidan ko'rsatilayotgan davlat xizmatlarining 80 foizi elektron shaklga o'tkazilib, tizimda byurokratiya va fuqarolarni sarson qilish holatlari bartaraf etiladi. Har bir faoliyat yo'nalishi bo'yicha ijtimoiy fikrni o'rganish va jamoatchilik tomonidan monitoring qilib borish amaliyoti "mahalla — tuman — viloyat — respublika" tamoyili asosida tashkil etish choralarni ko'rishimiz lozim.

Muxtasar aytganda, ichki ishlar tizimidagi islohotlarimizning amaliy natijasini sohaning har bir xodimi, birinchi navbatda, xalqimiz o'z kundalik hayotida sezishi shart.

Fursatdan foydalanib, siz, azizlarga o'z burchingizni chuqur anglab, amalga oshirayotgan fidokorona mehnatingiz uchun samimiy minnatdorlik bildiram. Sizlarning mashhaqqati va sharafi faoliyatigizni munosib rag'batlantirish bundan buyon ham davlatimiz va jamiyatimizning e'tibor markazida bo'ladi.

El-yurtimiz tinchligi va osoyishtaligi yo'lida halok bo'lgan mard va jasur xodimlarning xotirasini hurmat bilan yod etib, ularning oilalari va farzandlariga bayram tabrigimiz hamda ezgu tilaklarimizni izhor etamiz.

Sizlarni bugungi qutlug' bayram bilan yana bir bor chin dildan tabriklab, barchangizga mustahkam sog'liq, oilaviy baxt, mas'uliyatli xizmatigizda yangi muvaffaqiyatlar tilayman.

**Shavkat MIRZIYOEV,**  
O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti

### KUN MAVZUSI

## BAZALTNING AFZALLIGI NIMADA? yoxud issiqlik izolyatsiyasi qanday bo'lishi kerak?

Kuz faslining qoq o'rtasiga kelib havo haroratining sezilarli pasayishi aksariyat yurtdoshlarimiz, ayniqsa, markazlashgan gaz ta'minoti bo'lmagan qishloqlarda yashovchi aholi o'rtasida qahraton sovuq kunlarga tayyorgarlik ishlarini ayni kunning dolzarb muhokama mavzusiga aylantirdi.

Xususan, kecha ishdan qaytayotib yo'lovchi hamrohlarimizning mavzuga doir suhbatlari e'tiborimizni tortdi:

— Esingdami, adashmasam bundan 30 yillar oldin har bir xonadon qish uchun bir moshina ko'mir olardi.

Qish havosi o'ziyam shunga yarasha sovuq bo'lardi-da, — deydi chamasi ellik yoshlar atrofida ayol sherigiga yuzlanib.

Davomi 4-betda

### MULOHAZA

## BUGUN KITOB O'QIYOTGAN BOLALAR ERTAGA MILLATNING NAJOTKORI BO'LADI

Poytaxtimizdagi kitob do'konlaridan birida ko'p kitoblarni varaqlashga ham, izlayotganlarini topolmayotgan yosh ota-onaga ko'zim tushdi. Oldilariga yaqinroq keldim, gap-so'zlari qulog'imga chalindi. Ular farzandlari uchun kitob qidirayotgan ekan. O'g'illari o'n to'rtga to'libdi. "Ertak kitoblarni ko'p o'qidi, endi ularga qiziqishi qolmadi. Shu yoshli bolalarga mos kitoblar bormikin", deydi ota.

Ularga qo'shib, men ham qidirishga tushdim. Do'kon peshtaxtalari kitob bilan to'la. Ba'zi yozuvchilarning bir emas, o'ndan ortiq asari sotuvga qo'yilgan. Jang oldidan saf tortgan askarlarday g'oz turibdi. Sarguzasht kitoblarning son-sanog'i yo'q. Tijorat sirlari, boy bo'lish, boylik orttirish, uzoq umr ko'rish, kasallikdan dori-darmonsiz qutilish, uyqusizlik, qo'rqinchli tush

ko'rish, bepustiqlikning davosi va yana bir qancha antiqa mavzularga bag'ishlangan kitoblar xayolingizni o'g'irlyadi. Ertak kitoblar yetarli. Nozik oilaviy munosabatlar deng... Ammo muhtaram kitobyozarlar bolalikdan o'tib, katta hayot ostonasiga yaqinlashib kelayotgan o'smirlarni unutgan chog'i.

Davomi 6-betda

### 25-oktabr — O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar organlari xodimlari kuni

## VATANGA VA XALQQA SADOQAT

Keyingi yillarda yangi O'zbekistonning yangicha dunyoqarashdagi ichki ishlar organlari shakllandi. Tizim xodimlarining ma'naviy yoyofasi ham tubdan o'zgarib, faoliyat maqsadi inson qadriini ulug'lash tamoyiliga qaratildi. Shu tariqa ichki ishlar organlarining jamiyat hayoti va milliy taraqqiyotimizdagi o'rni sezila boshladi.

### Bu qanday boshlangan edi?

Avvalo, davlatimiz rahbari fuqarolarni o'zidan bezdirib, zada qilib qo'ygan tizimni xalqchil tuzilmaga aylantirish vazifasini qo'ydi. Ichki ishlar organlari faoliyatini tartibga soladigan qonunchilik bazasi

mustahkamlandi. 2016-yilda "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonun qabul qilindi va boradagi huquqiy-me'voriy poydevorni yanada mustahkamladi. Bunga qadar ichki ishlar organlari tarqoq normativ-huquqiy hujjatlar asosida faoliyat yuritardi.

Davomi 3-betda



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news

# AHOLIGA MUNOSIB TURMUSH SHAROITI YARATISH – ISLOHOTLARIMIZNING ASOSI

Boshlanishi 1-betda

Mahallada xizmat ko'rsatish sohasi, tikuvchilik va hunarmandchilik yaxshi rivojlangan. Xususan, yigirmaga yaqin savdo do'koni, sartaroshxona, umumiy ovqatlanish shoxobchasi va boshqa turdagi tadbirkorlik subyektlari faoliyat yuritmoqda. Ularda mahalliy aholi, xususan, yoshlar ish bilan band.

Joriy yilda mahalladagi ikki yuz nafardan ortiq ishsiz aholi doimiy va muammolar ko'p edi. "Oydin boshqaruv servis kompaniyasi" tashkil etilib, xizmat sifati yaxshilandi.

Kuz-qish mavsumi oldidan ko'p qavatli uylarda zarur choralar ko'rdi. Xususan, o'nta uyning tomi, yuzdan ortiq yo'laklar ta'mirlandi, issiqlik quvurlari izolyatsiya qilindi.

Hudud ko'kalamzorashtirilgan. "Yashil makon" loyihasi doirasida olti ming tupdan ortiq mevali va manzarali ko'chatlar o'tqazilgan. Ko'chalar asfaltlangan, yorit-

gichlar o'rnatilgan. Ikki kilometrlik piyodalar yo'lakchasi tashkil etilgan.

Qarshi shahri mas'ullari, mahalla "yettilligi" hududda amalga oshirilayotgan ishlar haqida axborot berdi.

Ma'lumki, yurtimizda barcha ijtimoiy chora-tadbirlar mahallalarda, xalq bilan birgalikda tashkil qilinmoqda. Bu tizim bosqichma-bosqich rivojlantirilib, endi yanada keng vakolat va imkoniyatlar berilmoqda. Mahalla raisi, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi hamda profilaktika inspektoridan iborat tizimga soliqchi va ijtimoiy xizmat xodimi ham qo'shilib, "mahalla yetilligi" joriy etilmoqda. Kelgusi yildan "Mahalla byudjeti" tizimi to'liq joriy qilinadi. Bu — har bir mahallaning 100 million so'mgacha mablag'i bo'ladi, degani. Shuningdek, amaldagi uchta platforma — "Onlayn mahalla", "Xotin-qizlar", "Yoshlar portali" o'zaro integratsiya qilinib, yagona tizimda mujassamlashtirildi.

Prezidentimiz mazkur tizimni samarali ishlatish, bunday keng vakolat va mablag'lardan foydalanib, mahalladagi dolzarb muammolarni hal qilish zarurligini ta'kidladi. Aholini tadbirkorlikka, xotin-qizlarni kasb-hunarlariga jalb etib, daromadini oshirish, yoshlar uchun madaniy tadbirlar, musobaqalar tashkil etish muhimligi qayd etildi.

Davlatimiz rahbari mahalladagi 11-uyda yashovchi Dilshod Nabiyeov xonadonida mehmon bo'ldi. Oila boshlig'i xususiy tadbirkor. Turmush o'rtog'i Huriyatxon bilan ikki farzandni voyaga yetkazmoqda. Ular tadbirkorlik faoliyati, bolalarga berilayotgan e'tibor va imkoniyatlar haqida so'zlab berdi.

Prezident mahallaning yangi mar-kazi — mahalla guzari, xizmat ko'rsatish shoxobchalarini ko'zdan kechirdi. Shu yerda nuroniyalar bilan muloqot bo'ldi.

Qarshi shahrida Respublika ixtisoslashtirilgan Ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazining hududiy filiali barpo etildi. Prezident tashrif chog'ida ushbu muassasani borib ko'rdi.

Joriy yil 8-sentabrda davlatimiz rahbarining "Onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish, aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Unga muvofiq, Respublika ixtisoslashtirilgan akusherlik va ginekologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi, Respublika aholi reproduktiv salomatligi markazi, Respublika Ona va bola skrining markazi negizida Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markaziga aylantirilmog'ida. Shuningdek, qarorda mazkur markazning 14 ta hududiy filiallari tashkil etilishi belgilangan.

Ushbu muassasa hamma talablariga javob beradigan dastlabki shunday markazlardan biri.

Qariyb to'rt gektarlik hududda to'rt qavatli zamonaviy binolar barpo etilgan. Barcha bo'limlar eng so'nggi rumumdagi ilg'or texnika va uskunalarni jihatlangan. Yurtimizda viloyatlar miqyosida hali bunday ulkan va zamonaviy tibbiyot markazi yo'q, deyish mumkin.

Bu yerda 200 o'rinni viloyat perinatal markazi, 200 o'rinni shahar tug'uruqxonasi, 50 qatnovli skrining markazi va

50 qatnovli reproduktiv markaz yagona majmuada jamlandi. Tug'ish yoshidagi hamda homilador ayollarga tug'uruq va tug'uruqdan keyingi davrlarda bitta markazda ixtisoslashgan tibbiy xizmat ko'rsatish imkoniyati yaratildi. Markaz ishga tushgach, bu yerda bir yarim ming nafar tibbiyot xodimi faoliyat olib boradi.

Davlatimiz rahbari markazdagi sharoit va qulayliklar bilan tanishdi. Germaniya, Belarus va boshqa mamlakatlardan bilan hamkorlik doirasida shifokorlarning malakasini oshirish, markazda profilaktika va davolashning ilg'or uslublarini joriy etish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Kelgusida bu yerda yiliga 8 ming nafardan ziyod patologik tug'uruqlarni qabul qilish imkoniyati yaratildi. Bu ko'plab onalar hayotini saqlashda muhim.

Markazda, shuningdek, kaminvaziv va laparoskopik amaliyot turli 42 taga yetkazildi. Tubektomiya, kistoektomiya, miomioektomiya va ventrofiksatsiya amaliyotlari yo'lga qo'yiladi. O'smir qizlar, ayollarning reproduktiv salomatligini muhofaza qilish, sog'lom onalikka tayyorlashdan boshlab, homiladorlikda antenatlar parvarish, skrining, tug'uruq hamda keyingi ona va bola parvarishi jarayonlari bir joyning o'zida tashkil etiladi.

Markaz 860 dan ortiq mahalla doylari bilan muntazam aloqada bo'ladi. Yagona elektron baza orqali viloyatning barcha hududlaridagi homiladorlar va tug'ish yoshidagi ayollar qamrab olinadi. O'n yettita markaziy ko'p tarmoqli poliklinika tarkibidagi ayollar maslahatxonasi va o'n sakkizta tug'uruq majmuasi bilan aloqa o'rnatiladi.

Bu orqali markaz xavf omillari aniqlangan ayollarni tibbiy tekshiruvdan o'tkazadi, ularni davolaydi hamda zarur hollarda respublika darajasidagi tibbiyot muassasalariga yo'naltiradi. Nikohlanuvchilar, homilador va tug'ish yoshidagi

ayollar hamda chaqaloqlarni molekulyar tibbiy-genetik tekshiruvlardan o'tkazadi. Irsiy kasalliklar aniqlangan bolalarni maxsus dori vositalari va oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlaydi.

Ayni kunlarda yurtimizning barcha hududlarida kuz-qish mavsumiga tayyor-garlik ishlari ketmoqda. Kommunal tarmoqlar qayta ko'rib chiqilib, issiqlik korxonalarini modernizatsiya qilinmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Qashqadaryoga tashrifi davomida viloyat "Issiqlik manbai" davlat unitar korxonasi negizida qurilgan yagona binyod etilgan markaziy qozonxonasini borib ko'rdi.

Ushbu majmuaga 12 Gkal quvvatga ega. Bu yerda Turkiyadan keltirilgan 14 MVt'li uchta qozon o'rnatildi. Buning evaziga yiliga 1,7 million kub metr tabiiy gazni iqtisod qilish imkoniyati yaratildi.

Markaz qurilishi jarayonida hududga olti kilometr qoplamali quvur tortildi. Issiqlik tarmoqlari yoqliq tizimiga o'tkazildi va yotqotishlardan himoya qilindi.

Ushbu majmuaning foydalanishga topshirilishi 38 ta ko'p qavatli uydagi bir yarim mingdan ziyod xonadon hamda uchta ijtimoiy obyektini issiq suv va issiqlik bilan ta'minlaydi.

Davlatimiz rahbari mutasaddilarga qishga tayyor-garlik ishlarini sifatlil bajarib, energiya va issiqlik ta'minotini barqaror qilish, energiya tejamaorlik madaniyatini oshirish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Shavkat Mirziyoyev ushbu majmuaga joylashgan Navo mahallasini ham ko'zdan kechirib o'tdi.

O'zbekiston Prezidentining Qashqadaryo viloyatiga tashrifi davom etmoqda.

**Ziyodulla JONIBEKOV, Ikrom AVVALBOYEV, O'lmas BAROTOV, O'ZA muxbirlari**



**JORIY YIL 8-SENTABRDA DAVLATIMIZ RAHBARINING "ONALAR VA BOLALAR SALOMATLIGINI MUHOFAZA QILISH, AHOLINING REPRODUKTIV SALOMATLIGINI MUSTAHKAMLASH CHORA-TADBIRLARI TO'G'IRISIDA"GI QARORI QABUL QILINDI. UNGA MUVOFIQ, RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN AKUSHERLIK VA GINEKOLOGIYA ILMIY-AMALIY TIBBIYOT MARKAZI, RESPUBLIKA AHOI REPRODUKTIV SALOMATLIGI MARKAZI, RESPUBLIKA ONA VA BOLA SKRINING MARKAZI NEGIZIDA RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN ONA VA BOLA SALOMATLIGI ILMIY-AMALIY TIBBIYOT MARKAZIGA AYLANTRILMOQDA. SHUNINGDEK, QARORDA MAZKUR MARKAZNING 14 TA HUDUDYI FILIALLARI TASHKIL ETILISHI BELGILANGAN.**

mavsumiy ishlarga joylashtirildi. Yana qariyb shuncha fuqaro "Ishga marhamat" monomarkazlari va boshqa nodavlat ta'lim muassasalari orqali o'qitildi. Ularning 191 nafari o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida ish boshlagan.

Mahalla faollari Prezidentga hudud-dagi o'zgarishlar, odamlar hayoti haqida so'zlab berdi. Bu yerdagi ko'p qavatli uylarda ilgari to'rtta og'ir toifadagi shirkat bo'lgan. Kommunal xizmatlarda

## AGROTARMOQ



— O'n yillaracha oldin boshqa hududlardan minglab tup igna bargli va boshqa manzarali daraxt ko'chatlari olib kelinib, Nukus shahri ko'chalariga ekilgan edi. Af-suski, ushbu ko'chatlarning juda kam qismi-gina unib ketdi, — deydi nukuslik Azat og'a Niyetullayev. — Shuning uchun keyingi yil-larda yo'l bo'yiga manzarali daraxt ko'chat-lari ekilayotganida, to'g'risi, biz ularning o'sib ketishiga shubha qilgan edik. Ammo eski ariqlar qayta tiklanib, oqar suv keldi, ko'chatlar doimiy parvarish qilindi. Ko'ka-rishiga shubha bilan qaralgan ko'chatlar hozir besh-olti metr bo'y cho'zib, soya-salqin manzilga aylandi. Uyim shu yerga yaqin. Deyarli har kuni sayr qilaman, daraxtlarni parvarish qilayotganlar bilan suhbatlasha-man. Bir kuni ulardan ushbu ko'chatlarning deyarli barchasi ko'karib ketganining sababi-ni so'radim. Ularining aytiishicha, ko'chat-lar tuproq va ildiz sharoitga mos bo'lgani, Nukusning o'zida yetishtirilgani va sug'orish tarmoqlarining tiklangani sababli ko'kargan. Bugun shahrimizning qaysi manzilga bor-mang, yashillikni, barq urib o'sayotgan dar-axtlarni ko'rib ko'zingiz quvonadi.

Nukus shahri hududida 318 kilometr irri-gatsiya tarmoqlari mavjud bo'lib, ular orqali "Yashil makon" loyihasi doirasida ekilgan daraxtlar, gullar va yashil maydonlar sug'oriladi.

— Shahar atrofidagi maydonlarni sug'o-rishda jami 38 ta nasos agregatidan foyda-lanamiz, — deydi Nukus shahri obodon-lashtirish boshqarmasi muhandisi Bahodir Eshmuratov. — Agregatlar asosan, sha-harni kesib o'tgan "Do'stlik" va "Enasoy" kanallariga o'rnatilgan.

Yashil maydonlarni barpo qilish, ekilgan ko'chatlarning o'sib, tomir otib ketishida suv ta'minoti muhim rol o'ynaydi. "Obod mahal-la" dasturi asosida "Yakka terak" mahalla fuqarolar yig'ini hududida yangidan 1,9 kil-omert uzunlikda suv tarmog'i qurish belgi-lanib, hozirda bu ishlar 80 foizga bajarilgan. Shu bilan birga, Qutlug' makon mahallasi hududida 3,1 kilometr irrigatsiya tarmog'ini qurish ishlari amalga oshirilmoqda.

Bundan tashqari, 7 ta turli quvvatdagi elektr nasos agregati xarid qilinib, shaha-rning Oydin yo'l, Qumbiz ovul, Do'stlik gu-zari, Bo'z ovul, Qo'sh buloq, Toshloq ma-hallalari hududidagi eski nasoslar o'rni-ga o'rnatildi. Shahardagi sug'orish tarmoqla-rining ta'mirlanishi natijasida hududda suv ta'minoti yaxshilandi.

So'nggi yillarda iqlimning global o'zga-rishi, aholi sonining va iqtisodiyot tarmoqla-rining o'sishi hamda suvga bo'lgan talabi oshib borishi natijasida obihayot kuchilligi kuchayib bormoqda. Shu tufayli suv resur-larini samarali boshqarish, iste'molchilar o'rtasida adolatli grafik asosida taqsimla-nishini yo'lga qo'yish, suv tejovchi tex-nologiyalarni joriy etish dolzarb masalalar-dan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda mamlakatimizdagi 70 foizdan ziyod ekin maydonlari eski usulda sug'oriladi. Prezidentimiz ta'бири bilan ay-tganda, bunday sug'orish tizimi "yerga nis-batan ham, suvga nisbatan ham vahshiy-lik", desak xato bo'lmaydi. Buni odamlar ongiga, madaniyatimizga singdirishimiz o'ta muhim masala.

Davlatimiz rahbarining saylovli dastu-rida suv resurslarini tejash va atrof-muhitni



muhofaza qilishga alohida e'tibor qaratilib, 2030-yilga qadar mamlakatimizdagi sug'orma dehqonchilik qilinadigan barcha ekin maydonlarini to'liq suv tejaydigan texnologiyalarga o'tkazish, sohaga bozor mexanizmlarini keng taqbiq etish, suv tejaydigan texnologiyalarni joriy etgan fermer va dehqonlar uchun rag'batlantirish mexanizmlarini yanada ko'paytirish choralarini ko'rinishi belgilangan edi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida 2024-yil hosil uchun jami 50 ming gektar maydonga g'alla ekish rejalashtirilgan bo'lsa, dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, may-donlarda ekish oldi sho'r yuvish ishlari-ga 450 million kub metr va ekishdan keyingi kuzgi, bahorgi va yozgi sug'orish ishlari-ga 357,14 million kub metr, jami 807,14 million kub metr suv sarflanishi kutilmoqda.

Ma'lumki, 2019-yildan boshlab respub-likamizda suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni davlat tomonidan qo'llab-qu-vatlash bo'yicha yangi tizim — subsidiya ajratish mexanizmi yo'lga qo'yilgan edi. 2022-yildan esa suv tejovchi texnologiyala-rni joriy qilgan qishloq xo'jaligi ishlab chi-qa-ruvchilariga subsidiya ajratish tizimi raqam-lashtirildi. Bu borada belgilangan imtiyozlar kelgusida suv tejovchi texnologiyalar joriy qilingan maydonlar ko'lamini sezilarli dar-a-jada oshirishga zamin yaratmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalarining uskunalari va butlovchi qismlarini ishlab

chiqaruvchi korxonalar soni 50 dan ortiqni tashkil etib, mazkur texnologiyalarni ma-halliy lashtirish 80 foizga yetkazildi. Natijada mahsulot tanarxi arzonlashdi, chet el va-lyutasi iqtisod qilinmoqda. Shu bilan birga, uskunalarni qo'shni respublikalarga eksport qilish imkoniyati yaratildi.

Suvni tejash masalasida ko'proq targ'i-bot va tashviiqt ishlarni olib borishga to'g'ri kelmoqda. Yaqinda Chimboy tumani "Tazg'ara" ovul fuqarolar yig'ini hududidagi "Rayma" fermer xo'jaligi dalasida suv tejov-chi texnologiyalarni joriy qilish va bu borada qabul qilingan qarorlarning mazmun-mohi-yatini keng tushuntirish, suv resurslaridan samarali foydalanish, irrigatsiya tizimidagi maxsus xizmat faoliyatini takomillashtirish yuzasidan ko'rgazmali seminar o'tkazildi.

Tadbirida Prezidentimizning 2022-yil 1-martdagi "Quy bo'yida suv resurslarini boshqarishni takomillashtirish hamda suv iste'molchilari orasidagi munosabatlarni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va 2023-yil 1-apreldagi "Suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan chora-tad-birlar to'g'risida"gi qarorlarining maz-mun-mohiyati keng tushuntirildi.

Suv tejovchi texnologiyalarni joriy qi-lish ishlari-ga fermer ayollar ham keng jalb qilinmoqda. Chunki bu borada ayol fer-mer-lar uchun alohida tanlovlar, grant loyihalari mavjud. Ayol fermerlarimiz ana shu loyi-halarda ishtirok etsalar, davlat tomonidan

ajratilgan subsidiyalarga qo'shimcha suv tejovchi texnologiyalarga sarflangan xara-jatlarni qoplash uchun yana imtiyozlarga ega bo'lishlari mumkin. Buning uchun esa suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilishda ayol fermerlar faollik ko'rsatishlari zarur, albatta.

Kegeyli tumanining "Oqtepa" ovul fuqa-ro-lar yig'ini hududida joylashgan M.Mirza-ye-v nomidagi bog'dorchilik va uzumchilik ilmiy-tadqiqot institutining tajriba maydoni-da bog'dorchilik va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish, suv resursla-ri-dan samarali foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

— Suv resurslaridan samarali foydala-nish va suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilishga oid qarorlar talablarini bajarishda Kegeyli tumanida ayni kunlarda g'alla ekish-ga tayyorlanayotgan maydonlarni 100 foiz lazer qurilmasi yordamida tekislash zarur, — deydi Qoraqalpog'iston Respublikasi na-sos stansiyalari va energetika boshqarmasi boshlig'i Kenes Saribayev. — Lekin barcha suv iste'molchilar ham mavjud suv tejovchi texnologiyalar va resurslardan oqilona fo-y-dalanishga yetarlicha e'tibor qaratmaypti.

So'nggi yillarda respublikada kuzati-layotgan suv tanqisligi sababli shimoliy tumanlarning ko'plab aholi punktlariga suv yetkazish katta muammoga aylangan. Yil boshidan mazkur masalaga hukumat da-rajasi-da e'tibor qaratilib, og'ir hududlar ro'yxati shakllantirildi. Bahorgi sho'r yuvish davridan boshlab suv xo'jaligining barcha bo'g'indagi hamda boshqa mutasaddi tash-ki-lotlar bilan birgalikda mazkur hududlarga suv yetkazishga kirishildi.

Natijada bir necha yillar davomida suv bormagan qirdan ortiq hududlarda sho'r yuvish tadbirlari o'z muddatlarida o'tkazish va aholi tomonidan suv taqisligining salbiy ta'sirini yumshatish, shuningdek, qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishda suv resurs-laridan samarali foydalanishga alohida e'ti-bor qaratilmoqda. Suvdan samarali foyda-lanish, qurg'oqchilik oqibatlarini yumshatish va iqlim o'zgarishiga moslashish bo'yicha innovatsion texnologiyalarni joriy etish ish-lari davom ettirilmoqda.

viloyatlarning bozorlariga va hatto xorijga ham eksport qilinmoqda.

Nukus tumanining Shortanbay hududi-dagi "Don va sholi ilmiy ishlab chiqarish bir-lashmasi" xo'jaligida ham suv resurslaridan samarali foydalanish, suv tejovchi tex-nologiyalarni joriy qilish va bu borada qabul qilingan qarorlarning mazmun-mohiyatini keng tushuntirish yuzasidan ko'rgazmali seminar tashkil etildi.

— Ayni kunlarda o'tgan yili suvni tejay-digan texnologiyalarni joriy qilgan hamda subsidiya mablag'larining 50 foizini olgan qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari-ga mazkur texnologiyalarni ishlatilishiga qarab belgilangan subsidiya miqdori-ning qolgan 50 foizi tuman ishchi guruhi xulosasi asosida ajratilmoqda, — deydi Qoraqalpog'iston Suv xo'jaligi vaziri-gining bosh mutaxassisi Abu Qidirba-ye-v. — Bugungi kunda tuman irrigatsiya bo'limlari tarkibidagi suv xo'jaligi maxsus xizmatlari tomonidan 2023-yil uchun jami 26,9 milliard so'mlik biznes rejalar ishlab chiqilgan va yanvar-iyul oylarida jami 8,7 milliard so'mlik xizmat ko'rsatildi. Suv iste'molchilari tomonidan 4,11 milliard so'm maxsus xizmat hisob raqamlariga ta'lab berilgan.

Suv tanqisligi sabab hududda tejam-ko-rlikni yo'lga quyish, shu asnoda kam xarajat, mo'l daromad olish imkoniyati ham yaratilmoqda. Bir tomondan suv te-jalsa, ikkinchi tomondan suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy qilish orqali mintaqa-da kuzatilayotgan suv tanqisligining salbiy ta'sirini yumshatish, shuningdek, qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishda suv resurs-laridan samarali foydalanishga alohida e'ti-bor qaratilmoqda. Suvdan samarali foyda-lanish, qurg'oqchilik oqibatlarini yumshatish va iqlim o'zgarishiga moslashish bo'yicha innovatsion texnologiyalarni joriy etish ish-lari davom ettirilmoqda.

**Minajatdin QUTLIMURATOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri**



# VATANGA VA XALQQA SADOQAT

**Sharif QOBILOV,**  
IIV akademiyasi professori,  
polkovnik

Boshlanishi 1-betda

Prezidentimizning 2017-yil 10-aprelda-gi "Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida ichki ishlar organlarini aholiga o'z vaqtida va sifatli yordam ko'rsatadigan, har bir xodimi **xalq manfaatlariga xizmat qilishni** o'z xizmat burchi deb biladigan, ijtimoiy yo'naltirilgan professional tuzilmaga aylantirish maqsadi ilgari surildi.

Shuningdek, ichki ishlar organlari oldiga xalqni rozi qilish, fuqarolar ichki ishlar organining har bir xodimida o'z himoyachisini ko'rish kerakligi bo'yicha aniq vazifalar qo'yildi.

Shundan so'ng ichki ishlar organlari saflari tubdan isloh qilindi. Tizimdagi har qanday salbiy holatlarning oldini olish va bunday illatlarning ildizini quritishga hamda xodimlarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini kamol toptirishga kirishildi.

Bugun ichki ishlar organining har bir xodimiga kuch va imkoniyati, qobiliyat va salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun zarur sharoit va imkoniyat yaratib berilmoqda. Xodimlarning munosib turmush sharoiti va farovonligini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy himoya masalasi mutlaqo yangi bosqichga ko'tarildi.

"Yangi O'zbekiston — inson qadri ustuvor bo'lgan jamiyat va xalqparvar davlat" ezu g'oyasida milliy taraqqiyoatimizing muhim bo'g'ini — insonlarning tinch yashash huquqi, qadr-qimmatini himoya qilish va erkin-erkin munosib hayot kechirishini ta'minlash maqsadi mujassam. Shu o'rinda ichki ishlar tizimining davlat boshqaruvi va fuqarolar xavfsizligini ta'minlovchi organ sifatidagi o'rni va roli har qachongidan-da muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda ijtimoiy davlat tamoyili insonparvar va adolati konsepsiyaga asoslanadi.



Bugungi kunda ichki ishlar organlari faoliyati huquqiy davlatni shakllantirish, jinoyatchilikka, korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha qat'iy tadbirlar ko'rish bilan ham samaradorlik kasb etmoqda. Jumladan, inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlarini ta'minlash maqsadida, **birinchidan**, tinchlik va osoyishtalikka, jamoat tartibi va fuqarolar xavfsizligini, barqaror taraqqiyotni kafolatlash, **ikkinchidan**, ichki ishlar organlarining asosiy vazifalari, faoliyati yo'nalishlari va prinsiplari hamda huquqiy maqomini aniq belgilash, **uchinchidan**, faoliyatini yanada demokratlashtirish, ochiqlik va shaffoqlikni mustahkamlash, **to'rtinchidan**, tizimga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va sohada boshqaruvi takomillashtirish, **beshinchidan**, davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan samarali hamkorlikka asosiy e'tibor qaratilmoqda.

Pirovardida, ichki ishlar organlarining ish uslublari va mazmun-mohiyati tubdan o'zgaradi, ya'ni nazoratchi, jazolovchi organlardan qonun ustuvorligini ta'minlaydigan, xalq manfaatlariga xizmat qiladigan tuzilmaga

aylandi. Bugungi kunda ichki ishlar organlarining xizmat faoliyati mutlaqo yangicha mexanizmlar, xalqchil model asosida tashkil etilmog'ida.

So'ngi yillarda tizim faoliyati tubdan takomillashtirilib, markaziy apparatdagi shaxsiy tarkibning 85 foizi bevosita aholi yashash punktlariga, quyidagilarga tushirildi. Ichki ishlar organlarini xalqqa yanada yaqinlashtirish, murojaatlarni tunu kun qabul qilish, mavjud muammolarni joyida, uy-uy yurib va o'z vaqtida hal etish maqsadida mutlaqo yangi tizim yo'lga qo'yildi. Shu tariqa xalq xizmatida bo'lish g'oyasi amalda ta'minlanmoqda.

Keyingi yillarda dunyoda yangi O'zbekistonga nisbatan ishonch ruhi va biz bilan hamkorlikka intilish maqsadi kuchaydi. Bunda, albatta, mamlakatimizda fuqarolar huquqlari ta'minlanayotgani, inson qadri har narsadan ustun qo'yilgan muhim ahamiyatga ega. Shu bois, ichki ishlar organlari tizimi ham yangilani, takomillashib borishi davr talabi sifatida bo'y ko'rsatadi. Bu yo'lda yurtimiz bo'ylab xavfsiz sharoit yaratish, tinchlik va osoyishtalikka qarshi tahdidlarga to'liq barham berish maqsadida ishlab chiqilgan O'zbekiston Respublikasining jamoat xavfsizligi konsepsiyasi hamda 2022-2025-yillarda jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini rivojlantirish strategiyasi izchil amalga oshirilayotir.

Ichki ishlar organlarining mahallalarda jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish uchun tashkil etilgan quyi bo'g'ini rivojlantirish va mustahkamlash bo'yicha salmoqli ishlar qilindi. Profilaktika inspektori ichki ishlar organlarining mahalladagi emas, aksincha, mahallaning ichki ishlar organlaridagi vakiliga aylandi.

Tizimli chora-tadbirlar natijasida jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasi, jamoat tartibini saqlash hamda aholi xavfsizligini ta'min-

shuningdek, kuch va vositalarni samarali boshqarishda rahbar kadrlarning intellektual, kasbiy salohiyatini yanada oshirishga yo'naltirilgan qator ustuvor vazifalar ijroga qaratildi.

Tabiiyki, bu borada IIV akademiyasida ham ichki ishlar organlari uchun professional kadrlar tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo'yicha muhim o'zgarishlar amalga oshirildi.

Jumladan, 2021/2022-o'quv yilidan boshlab jahon standartlariga mos keladigan bakalavriat va magistraturani o'z ichiga oluvchi ikki bosqichli oliy ta'lim tizimi, o'quv jarayoniga nazariya bilan amaliyot uyg'unligini ta'minlashga xizmat qiluvchi yangi ta'lim mexanizmlari tatbiq etildi.

Davlat boshqaruvi sohasida ichki ishlar organlari roli va mavqeyini ko'tarish, aholi va keng jamoatchilik bilan aloqasini mustahkamlashda rahbarning professionalligi, strategik tafakkuri muhim rol o'ynaydi. Shu bois, uzluksiz o'quv-karyera jarayonining ajralmas qismi bo'lgan magistraturada tizim uchun professional yetuk rahbar kadrlarni tayyorlash yo'lga qo'yildi.



lash, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasida muayyan natijalarga erishildi.

Tizimda kadrlar tayyorlash masalasi ham alohida e'tibordir. Keyingi yillarda Ichki ishlar vazirligining ta'lim tizimi ichki ishlar organlarining professional malakali kadrlar korpusini ta'minlashga qaratilmoqda.

Bugungi davr har jihatdan sodiq, halol, vatanparvar, fidoyi, mard va jasur, mustahkam irodali, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega, xalq manfaatlarini har narsadan ustun qo'yadigan xodimlarga ehtiyoj sezmoqda. Chunki islohotlarning muvaffaqiyati kadrlar malakasi, tashkilotchilik qobiliyati, yangi davr talablarini nechog'liq o'zlashtirgani, jonkuyarligi, halol va pokligi, qolaversa, vatanparvarligiga bog'liq.

Prezidentimizning 2021-yil 15-apreldagi qarori bilan ichki ishlar organlari uchun mutaxassislar tayyorlashning mutlaqo yangi tizimini joriy etish, xodimlarning malakasiga qarab xizmat bo'yicha o'sishini ta'minlash,

Magistraturada ta'lim jarayoni xizmatdan ajralgan holda kunduzgi shaklda tashkil etilib, ichki ishlar organlari boshliqlari va ularning barcha o'rinbosarlari faoliyatiga doir zarur kasbiy bilimlarni egallash hamda malakaviy amaliyotda samarali qo'llash ko'nikmalarini mustahkamlashga yo'naltirilgan "universal rahbar" tayyorlashga ixtisoslashgan modulli o'qitish tizimi joriy qilindi. Magistraturaning har bir tinglovchisiga ta'lim sifatini oshirish va mustaqil ishlashi uchun so'nggi rusumdagi personal kompyuter berildi.

Joriy yilda magistraturaning 52 tinglovchisi Xitoy, Rossiya, Turkiya, Janubiy Koreya va Birlashgan Arab Amirliklarida huquq-tartibot idoralari ta'lim muassasalari boshqaruvi malakasini oshirishga qaratilgan kurslarda tahsil oldi. Bundan tashqari, Rossiya, Belarus, AQSH, Germaniya kabi davlatlarning professor-o'qituvchilari va mutaxassislari tomonidan onlayn mahorat mashg'ulotlari o'tkazildi.

Ichki ishlar organlari xodimlari o'z va-kolatlarini bajarishida professionalizmning



o'zi yetarli emas, buning uchun ma'naviy va ma'rifiy tayyorgarlik ham muhim. O'z navbatida, davlat mustaqilligini himoya qilish, huquq-tartibotni mustahkamlash, jamoat xavfsizligini ta'minlash hamda fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini muhofazalashga ustuvor vazifa sifatida qaralishi kerak.

Prezidentimizning 2023-yil 20-yanvardagi "Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo'naltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori asosida Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyat va xizmat intizomiga kodeksi tasdiqlandi, ichki ishlar organlarida xodimlarning kasbiy madaniyati va xizmat intizomiga oid zamonaviy talablar belgilandi.

Mazkur kodeks hamkasblarimiz uchun yangi O'zbekistonning yangi ichki ishlar organlari xodimi, degan sharafli va shukuhli martabaga, uning butun mazmun-mohiyatiga daxldor bo'lgan burchini anglatishga qaratilgan siyosiy-huquqiy, ma'naviy-ma'rifiy hujjat bo'lib, asosiy ma'naviy-axloqiy normalar va ijtimoiy axloq qoidalari to'plami hamdir. Unga amal qilish ichki ishlar organlari nufuzini ko'taradi, ajdodlar an'analari va zafarlari faoliyatini davom ettirish hissinu rivojlantiradi.

Yangi O'zbekistonning yangi ichki ishlar organlari sifatida munosib xodim va rahbar bo'lish uchun faqat kasbiy, kuch va vositalarni oqilona boshqarishga oid bilimlar yetarli emas.

Vatanparvarlik, adolat va qonuniylkni hayotning mezonini, kasbiy burchini muqaddas deb bilish, tinimsiz o'qib-o'rganish, izlanish, yangilikka intilishi kuchli bo'lish zarur va shart.

Qolaversa, yangi O'zbekistonning zamonaviy demokratik qiyofasi qanday murakkab vaziyatlarda yaratilayotganini ham teran anglash jozidir. Strategik maqsadlarimizni, Uchinchi Rennanss davri asoslarini yaratish bilan bog'liq ezu orzunitilishlar, ularni amalga oshirish borasidagi eng muhim vazifalarni chuqur o'rganish va atroflicha tahlil etish borasida ham safarbarlik e'lon qilishimiz zarur bo'ladi. Bu yo'lda xalq mehri va ishonchini oqlash uchun har kuni tashabbus ko'rsatib xizmat qilishimiz kerak.

Fursatdan foydalanib, sohada tinim bilmay xizmat qilgan faxriylarimiz, ustozlarimiz, safdoshlarimiz va shogirdlarimizga bugungi kasb bayrami muborak bo'lsin deymiz!

## NUQTAYI NAZAR

Global iqlim o'zgarishi sharoitida atrof-muhit ifloslanishi, suv resurslari tanqisligi, bioxilma-xillikning qisqarishi natijasida dunyoda ekologik vaziyat tobora keskinlashib borayotir. **Jahon hamjamiyati bu global muammoga qarshi kurashish yo'lida qator chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda.**

**Xayrullo G'AFFOROV,**  
Oliy Majlis Qonunchilik  
palatasi Spikeri  
o'rinbosari

Mamlakatimizda ham bo'y nalishtidagi ishlar qamrovi kengaydi. Atruf-muhitni muhofaza qilish va ekologik vaziyatni sog'lomlashtirishga qaratilgan qator qonunlar, qonunosti hujjatlari, davlat dasturlari qabul qilindi. Ularning ijrosi bo'yicha olib borilayotgan ishlarlarga jamoatchilik ham keng jalb etilmog'ida.

Aytish joizki, hudud tanlamasi, chegara bilmas ekologik muammolarni bir mamlakat yoki mintaqqa miqyosida hal etish mushkul. Bunday global masalalarga yechim topishda xalqaro hamkorlikning o'rni beqiyos. Shu bois, davlatimiz rahbari jahonning nufuzli minbarlarida atruf-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik muammolarni bartaraf etishga yo'naltirilgan muhim tashabbuslarni ilgari surmoqda va ushbu konstruktiv takliflar



xalqaro jamoatchilik tomonidan alohida e'tirof etilyapti.

Davlatimiz rahbari yaqinda Samarqand shahrida bo'lib o'tgan Jahon turizm tashkiloti Bosh Assambleyasi 25-sessiyasidagi nutqida turizm sohasini yanada rivojlantirish, bu borada hamkorlikni har tomonlama chuqurlashtirish borasidagi takliflar qatorida iqlim o'zgarishi tobora kuchayib borayotgan davrda "yashil" turizm rivojlantirish bo'yicha xalqaro harakatlar dasturini qabul qilish, Global "yashil" turizm startaplari laboratoriyasini yaratish taklifini ilgari surgani muhim yangilik bo'ladi.

# “YASHIL” TARAQQIYOT YO‘LI

har birimizni tabiat bilan uyg'unlikka chorlaydi

Prezidentimiz, shuningdek, Pekinda bo'lib o'tgan "Bir makon, bir yo'l" uchinchi xalqaro forumidagi nutqida ham iqlim o'zgarishiga to'xtalib, O'zbekiston va Markaziy Osiyo jahondagi iqlim o'zgarishi oqibatlaridan eng ko'p zarar ko'rayotgan mintaqalardan biri ekanini ta'kidladi. Hozirgi vaqtda mintaqamiz mamlakatlari global isish, ekologik muvozanat buzilishining anomal ob-havo sharoitlari, tez-tez yuz berayotgan qurg'oqchilik va chang bo'ronlari, yerlar shiddat bilan degradatsiyaga uchrashi va cho'llanishi, bioxilma-xillik yo'qolishi ko'rinishida namoyon bo'layotgan jiddiy tahdidlarga chuqur kelayotgani qayd etib o'tildi.

Shu bilan birga, "Yashil ipak yo'li" doirasida keng ko'lami xalqaro hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha bir qator konseptual takliflarni ilgari surdi. Jumladan, Markaziy Osiyoning "yashil" kun tartibi va "Yashil ipak yo'li" konseptual tashabbuslarini o'zaro bog'liq holda amalga oshirish, "yashil" ishlab chiqarish zanjirlari va innovatsiyalarni rivojlantirish sohasida amaliy hamkorlikni kengaytirish, ekologiya sohasida mutaxassislar tayyorlash va akademik almashuvini rivojlantirish bo'yicha qo'shma dastur ishlab chiqish, "yashil" madaniyatni rivojlantirish bo'yicha global dasturni ishga tushirish masalalari shular jumlasidan.

Shu o'rinda, mamlakatimizda yuqorida qayd etilgan masalalar yuzasidan bir qator ishlar amalga oshirilayotganini ta'kidlash



lozim. Birgina energetik barqarorlikni ta'minlashni oladigan bo'lsak, "yashil" energiyaga o'tish, yangi quvvatlarni ishga tushirish va elektr tarmoqlarini yangilash va modernizatsiya qilish bo'yicha chora-tadbirlar izchil davom etyapti. Xususan, 2023-2026-yillarda umumiy quvvati 15 ming MVtga teng elektr stansiyalari ishga tushirilib, 2026-yilga borib, elektr energiyasi ishlab chiqarilishi 100 milliard kVt soatga oshirilishi belgilangan. Buning uchun respublikamizda qayta tiklanuvchi elektr stansiyalarini qurish

bo'yicha umumiy quvvati 8000 MVtdan ortiq bo'lgan 22 loyiha amalga oshirilmoqda. Shundan 3000 MVtdan ortig'i shamol elektr stansiyalari (7 ta) hamda 4000 MVtdan ortiq quyosh foteoelektr stansiyalari (15 ta) quriladi.

Joriy yil yakuniga qadar Navoiy, Samarqand, Jizzax, Surxondaryo, Qashqadaryo, Buxoro, Farg'ona va Toshkent viloyatlarida umumiy quvvati 3827 MVt bo'lgan 10 ta loyiha doirasida dastlabki 2000 MVt yangi quvvatlar ishga tushirildi.

2024-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi va Buxoro viloyatida umumiy quvvati 1100 MVt bo'lgan 3 ta shamol elektr stansiyalari va Navoiy viloyatida quvvati 200 MVt bo'lgan quyosh foteoelektr stansiyasini, 2025-yilda Xorazm va Buxoro viloyatlarida umumiy quvvati 350 MVt bo'lgan 2 ta quyosh foteoelektr stansiyalarini barpo etish rejalashtirilgan.

Bundan tashqari, 2026-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi va Buxoro viloyatida umumiy quvvati 2300 MVt bo'lgan 3 ta shamol elektr stansiyasini, Qashqadaryo, Jizzax va Farg'ona viloyatlarida umumiy quvvati 550 MVt bo'lgan 3 ta quyosh foteoelektr stansiyasi qurilishi belgilangan. Bu loyihalar, avvalo, ekologik muammolarning oldini olish va tabiiy boyliklardan oqilona foydalanishga zamin yaratadi. Qolaversa, aholi va ishlab chiqarish tarmoqlarining energiyaga bo'lgan ehtiyojini ta'minlash barobarida, sanoat yanada rivojlanishi, ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishning muhim omili bo'ladi.

Ayni paytda mamlakatimizda "yashil" taraqqiyotga erishish bo'yicha keng qamrovli ishlar izchil davom etyapti. Bu borada 2019-2030-yillarda O'zbekiston Respublikasining "Yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi muhim dasturlamal bo'lmoqda. Uning doirasida tabiiy resurslarni tejab-tergash va barcha sohalarda "yashil" energiya dan foydalanish samaradorligini oshirish borasida ishlar olib borilyapti.

Bu yo'nalishtda "O'zbekiston — 2030" strategiyasida ham muhim chora-tadbirlar belgilangan. Ularni ro'yobga chiqarish barqaror rivojlanishga erishish, xalqimizning hayoti farovonligini yanada oshirishga xizmat qiladi.



f yuz.uznews

yuz\_official

KUN MAVZUSI

# BAZALTNING AFZALLIGI

## yoxud issiqlik izolyatsiyasi qanday bo'lishi kerak?

**Avazbek XUDOYQULOV,**  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

**Boshlanishi 1-betda**

Bir tomondan haqson, u paytlarda qar nisbatan ko'p yog'ardi, sovuyt esa tanangni teshib o'tardi. Uch-to'rt oyilab pechkamizdagi cho'g' o'chmasdi, — deya uning gapini ma'qulaydi hamrohi. — Lekin odamlarning ongi zamonga yarasha o'zgar-masdan avvalgidek bo'lganida, bugun ham moshina-moshina ko'mir yoki o'tin olishimiz turgan gap edi.

"Nima uchun?" degan nigoh bilan sheri-ga savolomuz qaraydi boyagi ayol.

— Chunki agar o'sha paytlarni yaxshi es-lasang, eshik va romlarningizda 1-2 barmoq-cha keladigan tiriqshilar bo'lardi, — deya gapini davom ettiradi hamrohi. — Ularni paxta tiqib berkitganing bilan, xonaga izg'i-rin deqani izillab kirardi o'ziyam. Shuning uchun ham pechkalar kunu tun tinmasdi. Bir qishik pechka kulidan yaxshigina do'ng-lik hosil bo'lardi, agar eslasang.

— To'g'ri, — deya boshini tasdiq ishori-si bilan irg'aydi ayol. — Hozir zamon ham, odamlarning dunyoqarashi ham o'zgarib ketdi. Eshik-romlar zamonaviy, hatto xo-nani bezash uchun ishlatilayotgan qurilish materiallari ham issiqlikni yaxshi saqlaydi. Bir tutam o'tin bilan xona isiydi, asosiysi, bu issiqlik tundan to tonggacha xona haroratini me'yorda saqlab turadi.

Darhaqiqat, dunyoda aholi soni va shun-ga mos ravishda kundalik turmush uchun zarur mahsulotlarga talab oshib boryapti. Bu esa, o'z navbatida, cheklangan tabiiy zaxiralar, shu jumladan, uyni istishda foy-dalaniladigan ko'mir, gaz va boshqa tabiiy ne'matlardan yanada samarali foydalanish zaruratini yuzaga keltiryapti.

Gap qishning sovuq kunlarida ularni-mizni istish, ushbu jarayonda foydalaniladigan resurslarni tejash haqida borar ekan, bunda issiqlik saqlovchi qurilish materiallari ham alohida ahamiyatga ega. Binobarin, birgina bazalt plitalari bilan qoplangan uylarda o'rtacha 30-35 foizgacha energosa-madarorlikka erishish mumkin. Bu, ayniqsa, 1 kvadrat metr uchun energiya sarfi Yev-ropa davlatlariga nisbatan qariyb 3 barobar yuqori bo'lgan yurtimiz sharoitida g'oyat ahamiyatli.

### Bazaltning afzalligi nimada?

Shu o'rinda savol tug'iladi: bazalt o'zi nima? Bu avvalo, ekologik material, bosh-gacha aytganda, toshning bir turi. 1 ming 400-2 ming darajali olovda eritib, undan tola olinadi va paxta holatiga keltiriladi.



Mutaxassislarning qayd etishicha, bazalt plitalari uyimizda ana shuncha miqdorda energosamaradorlikka erishishga xizmat qilishi bilan bir qatorda, uning samarasi yoz oylarida ham seziladi. Xususan, bazalt qoplamali uylarda havo sovutgich qurilmalariga bo'lgan ehtiyoj uch barobar kamaya-di. Chunki mazkur qurilish mahsuloti qishda issiqni, yozda esa sovuqni saqlash xusu-siyatiga ega. Bazalt tolali qoplama tash-qaridagi shovqinni ham ancha pasaytiradi va odatdagi 30-40 detsibel shovqinni 15-20 detsibelgacha kamaytiradi.

Yana bir afzallik tomoni, u o'ziga nam tortmaydi. Muhimi, mog'or ham, bakteriya ham hosil qilmaydi. Mog'or aslida issiqlik va sovuqlik to'qnashgan joyda, ya'ni namlik yu-zaga kelishi natijasida paydo bo'ladi. Ko'p qavatli uylar devorlarini izolyatsiya qilish natijasida, avvalo, devor isiydi va natijada ichkari tomondan mog'or yuzaga kelmaydi. Bazalt tolali qoplama devorga o'rnatilgach, natija 7-8 kunda sezila boshlaydi. Chunki qoplamadan so'ng birinchi navbatda, devor isishi kerak.

50 millimetr qalinlikdagi ushbu qurilish plitasi o'zining issiqlik saqlovchi qobiliyatiga ko'ra, 180 millimetrdan ortiq qaraq'ay yoki archa yog'ochlari, 300 millimetrga yaqin gazobeton, 680 millimetrik bo'sh g'isht yoki 2500 milliyetrik temir beton o'rniini bosadi.

Modomiki, bazalt mana shunday qulay-liklarga ega ekan, nima uchun yurtimizda undan foydalanish keng ommalashmagan? Mutaxassislar buni birinchi navbatda, aholi turar joylari va ijtimoiy soha obyektlarini is-siqlik ta'minoti bilan ta'minlashda talab va taklifning mutanosibli bilan izohlashadi. Keyingi yillarda esa yuqorida qayd etilganidek, issiqlik hosil qiluvchi resurslarga talab keskin oshdi, zaxiralar esa aksin-cha, kamayib bormoqda. Bunday vaziyat-da dunyo miqyosida muqobil zaxiralarni yaratish bilan birga, tejamkorlikka erishish asosiy vazifaga aйлandi. Bazalt — ana shu maqsad yo'lida ixtiro qilingan innovatsion qurilish materiali hisoblanadi.

Aslida, bizda ushbu qurilish mahsu-lotidan foydalanish ommalashmagan, de-yish bir oz noto'g'ri bo'ladi. Chunki mam-lakatimizda so'ngi yillarda bu turdagi mah-sulot ishlab chiqarish hajmini oshirish va undan foydalanishni kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada Preziden-timiz doim energiyani tejash orqali turar joy-lar narxini arzonlashtirish kerakligini ta'kid-laydi. Xususan, davlatimiz rahbari 2019-yil 9-oktabrda poytaxtimizning Olmozor business city" ishlabarmonlik markazidagi bunyodkor-lik ishlarini ko'zdan kechirar ekan, "Uylar sonini ko'paytirish, energiyani tejash



orqali turar joylar narxini arzonlashtirish kerak. Buning uchun qurilish material-lari, bazalt tolali ishlab chiqarish kor-xonalarni ko'paytirib, har bir hududga yetkazib berish zarur", degan edi.

### Xomashyo ham, imkoniyat ham yetarli

Mamlakatimiz qurilish sektorida bazalt-dan foydalanish borasidagi ishlar haqida fikr yuritishdan oldin, ushbu turdagi mahsu-lot ishlab chiqarish hajmini oshirish imkon-iyatlariga to'xtalib o'tsak.

Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqot-lar instituti mutaxassislari tomonidan ayni mavzuda o'tkazilgan o'rganishlarga ko'ra, respublikamizning turli hududlarida bazalt zaxiralar mavjud. Jumladan, 10 ta konda bazalt jinslarining aniqlangan zaxirasi 44 million tonnani tashkil etadi va uning 52 foizi Jizzax viloyatida joylashgan. Shuningdek, Namangan, Navoiy va Samarqand viloyat-larida ham bazalt konlari bor.

Mamlakatimizda ushbu yo'nalishda faoliyat yuritayotgan 6 ta korxonada bazalt-dan 60 ming tonnadan ortiq ekologik mah-sulot, jumladan, bog'lovchi polimerlar bilan to'yintirilgan bazalt iplardan diametri 4 dan 32 millimetrgacha bo'lgan qurilish armatu-ralari ishlab chiqarilmoqda.

Shu yil 10-fevral kuni Prezidentimiz Jiz-zax viloyatida sanoatni rivojlantirish va qay-ta tiklanuvchi energiya manbalarini ko'pay-tirish masalalari bo'yicha o'tkazilgan yig'i-lish so'ngida 3 ta yangi korxonaga faoliyatiga start bergan edi. Ulardan biri — Forish tumanidagi "Eco Basalt Group" korxonasi aynan ushbu yo'nalishga ixtisoslashgani bilan ahamiyatlidir. Binobarin, korxonaga bazaltdan yiliga 5 ming tonna kompozit quvur-lar ishlab chiqarish quvvatiga ega.

2022-yilda esa Toshkent shahrida yil-ga 30 ming tonna bazalt toshidan issiqlik saqlovchi plitalar ishlab chiqarishga ixtiso-shlangan korxonaga foydalanishga topshirilgan edi.

Umuman olganda, 2023-2024-yillar-da Andijon, Navoiy va Jizzax viloyatlarida bazalt toshidan issiqlik saqlovchi plitalar ishlab chiqarish bo'yicha qiymati 63,1 mil-ion dollarlik uchta investitsion loyiha ish-ga tushirilib, yiliga 95 ming tonna qo'shimcha quvvat yaratiladi. Xususan, Andijon viloyati-da "Everest Metal Grand" MCHJ tomonidan yiliga 20 ming tonna bazalt toshidan issiq-lik saqlovchi plitalar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilsa, Navoiy viloyatida yillik quvvati 30 ming tonna bo'lgan "Petrowool" MCHJ in-vestitsiya loyihasi amalga oshiriladi. Shu-ningdek, Jizzax viloyatida "Basalt Wool"

MCHJ tomonidan yiliga qo'shimcha 45 ming tonna mahsulot ishlab chiqarish yo'l-ga qo'yiladi. Pirovardida esa, joriy yilning o'zida yurtimizda bazalt toshidan issiqlik saqlovchi plita ishlab chiqarish quvvati 178 ming tonnaga yetkaziladi.

— "Yashil" iqtisodiyot rivojlanishi bilan energiya tejovchi texnologiyalar, mahsulot va materiallarga ehtiyoj ham ortib bormoq-da, — deydi Makroiqtisodiy va hududiy tad-qiqotlar instituti bosh ilmiy xodimi Mirhamid To'rayev. — Jahon tajribasiga ko'ra, uy-joy sektori yetkazib beriladigan issiqlik ener-

**“** **MAMLAKATIMIZ QURILISH SEKTORIDA ISSIQLIK SAQLOVCHI MATERIALNING ASOSAN UCH XILI — BAZALT TOSHI, SHISHA MOMIG'I VA PENOPLEKS TUURLARIDAN KENG FOYDALANILADI. MA'LUMOTLARGA KO'RA, 2016-YILDA YURTIMIZDA 17 MING TONNA SHUNDAY QURILISH ASHYOLARI ISHLAB CHIQRILGAN BO'LSA, 2022-YILGA KELIB, BU KO'RSATKICH 43 MING TONNANI TASHKIL ETGAN. ISSIQLIK SAQLOVCHI QURILISH MATERIALLARINING ASOSIY QISMI ICHKI BOZOR EHTIYOJLARI UCHUN YO'NALTIRILGAN BO'LSA, 12,4 MILLION DOLLARLIK QISMI QO'SHNI DAVLATLARGA EKSPORT QILINGAN.**

giyasining 40 foizgacha qismini iste'mol qiladi. 1960-1990-yillar oralig'ida qurilgan binolarda istitish uchun foydalaniladigan issiqlik energiyasining 30 foizgacha qismi yo'qoladi. Respublikamizda 40 mingga ko'p qavatli uy-joy bo'lsa, shundan 31 mingga yaqini 1991-yilgacha qurilgan. Bundan xu-losa qilish mumkin. Ko'p qavatli uylarning asosiy qismida katta miqdorda energiya isrof bo'lyapti. Shuning uchun ham mam-lakatimizda bu kabi yo'qotishlarning oldini olish maqsadida "ekoqurilish" ga e'tibor kuchaytirildi. Ya'ni bino va inshootlar ter-moizolyatsiyasida ekologik materiallardan foydalanishga asoslangan innovatsion "yashil" texnologiyalar keng joriy etilmoc-da. O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan va bazaltdan tayyorlangan energotejamkor va o'tga chidamli "yashil" tolali materiallar, to'qimalar, armatura va boshqa mahsulot-lar ushbu innovatsion tendensiyaga mos keladi.

Darhaqiqat, bugun barcha soha va tar-moqlarda yuqori samaradorlikka erishish uchun yangicha yondashuvlar talab etil-moqda. Yurtimizda bunyodkorlik ishlari to-bora kengayib borayotganini inobatga olsak, qurilishdagi bu kabi yangiliklar ahamiyati yanada oshadi. Ayniqsa, shu yil yanvarida kuzatilgan anomal sovuq bo-havo sharoit-da buni barchamiz o'z tanamizda his qildik.

Kezi kelganda ta'kidlash o'rlinki, o'sha paytda davlatimiz rahbari topshirig'iga



# nimada?

muvofiq, Bosh vazir raisligida anomal sovuq havo sharoitida amalga oshirish lozim bo'lgan vazifalar muhokamasiga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi o'tkazilib, o'tgan asrning 60-90 yillarida qurilgan ko'p qavatli uylarning tashqi qismini bosqich-ma-bosqich bazalt qoplamaga o'tkazish lozimligi qayd etilgan edi.

### Energotejamkorlik — bosh omil

Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi va-zirligidan ma'lum qilishlaricha, mazkur yig'i-lishda belgilangan vazifalarga doir Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 10-fevraldagi farmoyishiga asosan, Toshkent shahrining Uchtepa va Chilonzor tumanlarida 4 ta ko'p qavatli uy mukammal ta'mirlanib, fasad qis-mi bazalt bilan qoplangan. Bundan tashqari, 1 ta modulli qozonxonaga qurilgan.

— Ushbu loyiha Toshkent shahri va viloyatidagi ko'p kvartirali uylar, issiq-lik ta'minoti hamda boshqa obyektlarda

u yonuvchan material hisoblanadi. Buni faqat binoning sokol qismiga ishlatish mumkin.

Bugungi kunda eski uylarda energote-jamkorlikka erishishga qaratilgan ishlar bilan bir qatorda, yangi qurilayotgan barcha turar joy obyektlari, jumladan, "Yangi O'zbekiston" massivlaridagi ko'p qavatli uylar qurilishida shaharsozlik qoida va nor-malari asosida fasadlarni issiqlik izolyatsi-yalovchi maxsus qoplamalar — bazalt bilan qoplash qat'iy belgilangan.

Prezidentimizning joriy yil 13-apreldagi "2023-yilda bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlari orqali aholini uy-joy bilan ta'minlash dasturini amalga oshirish cho-ra-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 2023-yilda oldingi yillarda barpo etilgan "Yangi O'zbekiston" massivlarining bo'sh turgan yer uchastka-lari va uy-joyga talab yuqori bo'lgan boshqa hududlarda quriladigan uylarning Manzil-li ro'yxatiga muvofiq, respublika bo'yicha qariyb 91 ming xonadondan iborat 2 ming-dan ortiq uy qurilishi belgilangan. Ularning 837 tasi "Yangi O'zbekiston" massivlarida, qolgan 1 ming 175 tasi esa uy-joyga talab yuqori bo'lgan hududlarda barpo etilmocda.

— Ayni paytga qadar "Yangi O'zbekiston" massivlarida barpo etilayotgan uylarning 206 tasi hamda xususiy tadbirkorlar tomoni-dan qurilayotgan uylarning 330 tasi foyda-lanishga topshirilgan, — deydi Z.Ergasheva. — "Yangi O'zbekiston" massivlari uchun muhim bo'lgan tashqi muhandislik-kommu-nikatsiya tarmoqlari bilan ta'minlash ish-lari ham uy-joylar qurilishi bilan bir vaqtda amalga oshirilmoqda. Xususan, massivlarni ichimlik suv bilan ta'minlash, oqova suv va markaziy issiqlik ta'minoti tizimi tarmoqlarini tortish, qozonxonalar qurilishiga doir ishlar yakuniga yetkazilmocda. Ko'p qavatli uylar fasadi bazalt bilan qoplanaypti.

Hozir butun dunyoda bino va inshootlar innovatsion, yangi turdagi qurilish material-larini qo'llash orqali sifatlari, har tomonlama qulay, energotejamkor tarzda bunyod etil-yaptiki, bu avvalo, davr talabi. Yurtimizda ham ana shu zaruratdan kelib chiqib, dunyo tajribasi qo'llanilmocda.

Mamlakatimiz qurilish sektorida issiqlik saqlovchi materialning asosan uch xili — bazalt toshi, shisha momig'i va penopleks tuurlaridan keng foydalaniladi. Ma'lumot-larga ko'ra, 2016-yilda yurtimizda 17 ming tonna shunday qurilish ashyolari ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2022-yilga kelib, bu ko'rsatkich 43 ming tonnani tashkil etgan. Issiqlik saqlovchi qurilish materiallarining asosiy qismini ichki bozor ehtiyojlar uchun yo'naltirilgan bo'lsa, 12,4 million dollarlik qismi qo'shni davlatlarga eksport qilingan.

Bir so'z bilan aytganda, ayni paytda yurt-imizda bazalt toshidan issiqlik saqlovchi pil-talar tayyorlash va undan ko'p qavatli uylar izolyatsiyasida foydalanish ancha omma-lashgan. Bazalt xomashyosining sezilarli resurs salohiyati, ichki va jahon bozorida ta-lab mavjudligi, xomashyo qazib olish va ma-terial ishlab chiqarishning ekologik tozaligi hisobga olinisa, ushbu turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishning hajmi va turini kengay-tirish "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish uchun istiqbolli yo'nalish hisoblanadi.

### ISLOHOT ODIMLARI

**Shu kunlarda Samarqand viloyatidagi fermer xo'jaliklarida yetishtirilgan meva-sabzavot hosilini terish va yig'ishtirish ishlari qizg'in davom etmoqda. Xususan, "Ohalik oltin bog'i mevasi" klasterining Jomboy filialiga qarashli intensiv bog'larda olma terimi avjvida.**

Uchinchi yildirki, 350 gektarda ham ich-ki, ham tashqi bozorda xaridorig bo'lgan olmaning "Pink ledi" serhosil navi yetishtir-ilmoqda.

— Bu yil har gektardan o'rtacha 40 tonnadan, kelasi yili esa 60 tonnadan olma hosili olishni mo'ljallaypmiz, — deydi filial rahbari Zafar Tohirov. — Filialda mingga yaqin mavsumiy va 46 na-far doimiy ishchi mehnat qiladi. Ularning o'rtacha oylik maoshi 2-2,5 million so'm. Bundan tashqari, joriy yilda bodoming

## SAMARQAND OLMASI YEVROPA BOZORLARIDA

Greitsiyadan keltirilgan yangi navini parva-rish qilishni boshladik.

Samarqandda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga bag'ishlab o'tkazilgan xalqa-ro konferensiya doirasida tashkil etilgan yarmarkada mazkur klasterning filial va fermer xo'jaliklari faol ishtirok etib, xorijlik hamkordlar bilan 10 dan ortiq shartnoma imzoladi. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, "Ohalik oltin bog'i mevasi" nafaqat viloyat, balki mamlakatimizda ham meva-sabzavot eksport qiluvchi yirik korxonalaridan biridir.

Shu bois, korxonada kelgusi yillarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini ko'paytirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan.

"Ohalik oltin bog'i mevasi" klasteri to-monidan Samarqand viloyatidan tashqari Toshkent, Jizzax va Buxoro viloyatlaridagi qariyb to'rt ming gektar maydonda ham in-tensiv bog'lar barpo etildi.

Mazkur klasterda nafaqat mahsulot yetishtirilmoqda, balki ularni xalqaro an-



dozalar asosida qayta ishlab, qadoqlash ham yo'lga qo'yilgan. Bu esa mahsulot eksportini hajmini oshirish imkonini bermoq-da. Masalan, joriy yilda klaster tomonidan

Yevropa, Rossiya, Tojikiston va Qozog'is-tonga 16 million 741 ming AQSH dollarlik mahsulot eksport qilindi.

— Olma va o'rik konsentratlariga jahon

bozorida talab katta, — deydi klaster rah-bari Olim Soliyev. — Shu bois, o'tgan yili zamonaviy qadoqlash uskunalari yordami-da konsentrlangan qishloq xo'jaligi mah-sulotlari ishlab chiqarishni yo'lga qo'ydik. Qolaversa, hozir qovunlarimizga ham xari-dorlar ko'p. Mahsulot dastlab muzlatgichda tegishli haroratda saqlanadi. Keyin qadoq-lanib, maxsus avtomashinalarda xorijiy iste'molchilarga yetkaziladi.

Klaster tizimidagi korxonaga va fermer xo'-jaliklarida 600 nafardan ortiq ishchi-xizmat-chi doimiy ish bilan ta'minlangan. Bu yerda mehnat qilayotgan mavsumiy ishchilar soni esa 3 ming kishiga yetadi. Ishchilarning ak-sariyati xotin-qizlar bo'lib, ular Jomboy, Toy-loq, Nurobod, Pastdarg'om tumanlaridagi chekka qishloqlardan kelgan.

— Men Jomboy tumanining Naymante-pa mahallasidan kelib ishlayapman, — dey-di Gulsara Tojiyeva. — Biz uchun tushlik ovqat va transport bepul. Oylik maoshimizni o'z vaqtida berishyapti.

Yana bir e'tiborli jihati, mazkur jamoa ri-jiy hamkordlar bilan ham muntazam amaliy aloqa o'rnatgan.

— Xususan, xorijlik mutaxassislar bog'parvarishlash, turli hasharot va zararkunan-darlarga qarshi kurashish bo'yicha bizga mastahat berib keladi, — deydi O.Soliyev. — Hozirgi paytda Samarqand viloyatining Oqdaryo, Samarqand, Jomboy va Nurobod tumanlarida klasterimiz bog'lari bor.

Yil oxirigacha klaster jamoasi eksport hajmini 20 million dollarga yetkazishni re-jalashirmocda. Besh ming tonna sig'imga ega zamonaviy sovutgich yetishtirilgan qish-loq xo'jaligi mahsulotlarini sifatlili saqlash imkonini beradi.

Darhaqiqat, endi meva-sabzavotlarni ko'proq, sifatlili va arzonroq yetishtirish va sotish mumkin. Chunki yurtimizda, birin-chidan, kichik biznes uchun keng va qulay imkoniyatlar yaratilmoqda, ikkinchidan, viloyatda mahsulot saqlash va qayta ish-lash tizimiga ega meva-sabzavot klasterlari ko'payib boryapti.

**Yormamat RUSTAMOV,**  
jurnalist

JARAYON

TA'LIMGU  
YANGICHA YONDASHUVLAR KERAK



Abdulhamid XOLMURODOV,  
Qarshi davlat universiteti  
prorektori, professor

Ta'lim sifati deganda ta'lim mazmunining bugungi davrga xos ijtimoiy zaruriyatlar, strategik maqsad va vazifalarga mutanosibliq nazarda tutiladi. Har qanday jamiyatda ta'lim sifati yuk-saltirish uchun shu maqsadga qaratilgan sa'y-harakatlar aniq tamoyillarga bo'yundirilmo'g'i darok.

Ta'lim sifati ta'minlash va oshirish masalasi oson hamda bir martalik tadbirlar evaziga hal qilinadigan vazifa emas. U keng miqyosdagi chora-tadbirlarni uzluksiz va tizimli ravishda amalga oshirishni taqozo qiladi. Xususan, butun ta'lim tizimidagi choralar jamiyatning bugungi strategik maqsadlariga mos bilim va malakalar doirasini aniqlash, bu bilimlarni yetkazish borasidagi ijtimoiy tajribalarni umumlashtirishdan iborat bo'lishi lozim.

Tahsil jarayonini tashkil etish choralarini mashg'ulotlarning zamonaviy shakllarini tatbiq etish, pedagogik texnologiyalarni qo'llash, pedagoglarning bu boradagi mahoratini yuksaltirishga

**Bugun mamlakatimizda asosiy e'tibor ta'lim sifati oshirishga qaratilmoqda. Prezidentimiz ham Oliy Majlis va xalqimizga 2022-yilgi murojaatnomasida "Ta'lim sifati oshirish yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to'g'ri yo'lidir", deya ta'kidlagandi. Zero, ta'lim sifati, mazmuni, uni shakllantirish tamoyillari, choralari va mezonlarini aniqlash masalasi nafaqt ilmiy-nazariy, balki amaliy ahamiyatga ega vazifalar sirasiga kiradi.**

chop etishga tavsiya qilindi, 17 tasiga esa nashrga rad javobi berildi.

Oliyohimimizda ta'lim mazmunining fanlarga integratsiyasini ta'minlash masalasiga alohida e'tibor berilmoqda. Buning uchun o'quv rejalar va dasturlarini, o'quv-uslubiy majmualarni tayyorlashda yetkazilishi rejalantayotgan bilim va malakalarning takrorlanmasligiga erishish ko'zda tutilmoqda. Shuningdek, bir o'quv fani doirasida yetkazilayotgan bilimlarni boshqa fanlardagi mavzular bilan uyg'unlashtirish uslubiyotini ishlab chiqish ustida ishlayapmiz.

Universitetda o'qitishning mustaqil ta'limga asoslangan yangicha kredit-modul tizimi yo'lga qo'yilgan. Bunda

ta'lim sifati oshirishga harakat qilinmoqda. Buning uchun malakali mutaxassislar va tyutorlar yordamida talabalarining ruhiy holati va intellektual salohiyati tahlil qilinmoqda. Tahlil natijalari asosida qobiliyati va alohida yondashuvga muhtoj talabalar uchun maxsus guruhlar tashkil etilmoqda. Bunday yondashuv ta'lim mazmunini talabalarining individual xususiyatlariga moslashtirish imkonini bermoqda.

Ta'lim va amaliyot jarayonlarini birgalikda olib borish maqsadida viloyatdagi yirik ish beruvchi tashkilotlar bilan hamkorlik shartnomalari imzolangan va talabalar malakaviy amaliyotlarni real ishlab chiqarish jarayonlarida o'tashi uchun barcha sharoitlar yaratilgan.



TA'LIM VA AMALIYOT JARAYONLARINI BIRGALIKDA OLIB BORISH MAQSADIDA VILOYATDAGI YIRIK ISH BERUVCHI TASHKILOTLAR BILAN HAMKORLIK SHARTNOMALARI IMZOLANGAN VA TALABALAR MALAKAVIY AMALIYOTLARNI REAL ISHLAB CHIQARISH JARAYONLARIDA O'TASHI UCHUN BARCHA SHAROITLAR YARATILGAN.

xizmat qiladigan yangi malaka oshirish tizimini vujudga keltirish tadbirlaridan iborat bo'lmo'g'i zarur. Ana shunday tizimli yondashuvga ta'lim sifati yuk-saltirish imkonini beradi.

Bugun Qarshi davlat universitetida tayyorlangan darslik, o'quv o'qilgan va lug'atlar mazmunini mutaxassislarni jalb qilgan holda tahlil qilib chiqish vazifasi kun tartibiga qo'yilmoqda. Fikrimizcha, ushbu choralar yaratilayotgan o'quv adabiyotlarining ta'lim islohotlari vazifalariga mosligi darajasini aniqlash imkonini beradi. Hozirga qadar universitetda shakllantirilgan ekspertlar guruhlari tomonidan jami 109 ta o'quv adabiyoti ekspertizadan o'tkazildi, ularning 92 tasi

asosiy e'tibor ta'lim sifati oshirish, professor-o'qituvchilar va talabalarining o'z ustida ishlashga qaratilgan.

Mazkur o'quv-uslubiy ishlarni yagona boshqaruv tizimiga o'tkazish maqsadida universitetda Akademik faoliyat va registrator boshqarmasi yo'lga qo'yiladi. Mazkur boshqarmada talabalarga 40 ga yaqin xizmat ko'rsatiladi.

Talabalar bo'sh vaqtdan umumiy foydalanishi va mustaqil ta'lim topshirig'larini vaqtida bajarishi uchun universitetning 500 o'rinli Axborot-resurs markazi zamonaviy ta'mirlandi va uch smenada ish tashkil etildi.

Shuningdek, universitetda individual-differensiyalashgan yondashuv orqali

O'quv jarayonini yoshlar o'zlashtirishi zarur bo'lgan bilim va malakalar hajmiga moslashtirish maqsadida kafedralarning mashg'ulotlar mazmuni va soatlarini belgilashdagi vakolatlari kengaytirilmoqda. Bunda kafedralar nafaqt fanning muayyan bo'limlari uchun ajratiladigan o'quv soatlari miqdorini mustaqil belgilash, balki uni talabalarga yetkazishning maqbul shakllari va uslubiyatini tanlash imkoniyatlariga ham ega bo'lmoqdalar.

Bugun ta'lim sifati oshirish maqsadida universitetda jamiyat strategik maqsadlariga mos bo'lgan bilim va malakalar doirasini aniqlash, bu bilimlarni yetkazish borasidagi ijtimoiy tajribalarni umumlashtirish imkonini beradigan "G'oyalar markazi" tashkil etish ustida ish olib boryapmiz. Hozir ushbu markazning funksional vazifalari, ishlash tartibi va tamoyillari, tarkibiy tuzilmasi aniqlandi. Aytish zarurki, markaz nafaqt universitetdagi o'quv-uslubiy, balki ilmiy tadqiqot va ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni ham yanada jonlantirishga xizmat qiladi.

BANDLIK

Aholining farovon turmush kechirishi, hayotidan rozi bo'lib yashashi ularning doimiy daromadli yumush bilan bandligiga bog'liq. Kasbi va hunari bo'lgan inson esa hech qachon ishsiz qolmaydi. Shundan kelib chiqib, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan hududlarda "Ishga marhamat" monomarkazlari tashkil etilib, ham nazariy, ham amaliy mashg'ulotlar uchun barcha moddiy texnik baza yaratildi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad ishsiz fuqarolar o'zlari tanlagan kasbining mohir mutaxassisi bo'lib yetishib chiqishi va jamiyatda o'z o'rnini topishi, oilasiga daromad olib kirishiga ko'maklashishdir.



KASB VA HUNAR O'RGATIB,  
ISH TAQDIM ETAYOTGAN MASKAN

Navoiy shahridagi "Ishga marhamat" monomarkazi fuqarolarga mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasb-hunarlarini o'rgatib kelmog'ida. Dastlab 13 ta yo'nalishda kasbga o'qitish bo'yicha faoliyatini boshlagan bo'lsa, hozirda ularning soni 32 taga yetdi. Shuningdek, kompyuter savodxonlik kurslari kuniga ikki navbatda tashkil etilgan. O'tgan vaqt davomida monomarkazda 4 mingdan ortiq fuqarolar kasb-hunarini o'rganib, bandligi ta'minlandi.

Davlatimiz rahbari 2021-yil oktabr oyida Navoiy viloyatiga tashrif chog'ida ushbu monomarkazda bo'lib, mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasb-hunarlariga o'qitish bo'yicha qo'shimcha yo'nalishlar tashkil etish lozimligi haqida o'z tavsiyalarini bergan edi. Shundan so'ng, Navoiy kon-metallurgiya kompaniyasi va "Navoiyazot" aksiyadorlik jamiyatlarini bilan shartnomalar tuzilib, monomarkazda tog'-kon sanoatiga zarur bo'lgan mutaxassislar tayyorlanmoqda. Ushbu yo'nalishlarda o'qitayotgan tinglovchilar amaliyotlari ham bevosita mazkur korxonalarda tashkil etilmoqda. Monomarkazda tayyorlangan mutaxassislar korxonalar bilan tuzilgan shartnomalar asosida mehnat faoliyatini ham davom ettirmoqda.

Hozirda "Ishga marhamat" monomarkazida va o'nlab yirik korxonalar o'rtasida hamkorlik shartnomalari tuzilgan. O'qitilayotgan fuqarolarning jarayonda bevosita ushbu korxonalarda amaliyot o'tayotgani ularning o'z tanlagan yo'nalishlarida yaxshi mutaxassis bo'lishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'qitish tugagandan so'ng tinglovchilar o'zlari amaliyot o'tagan korxonalarda bandligi ta'minlanmoqda, — deydi Navoiy shahar "Ishga marhamat" monomarkazi bo'lim boshlig'i Murodjon Zaripov.

Markazda ish beruvchilardan tushayotgan talablarga ko'ra, ham mutaxassislar tayyorlanadi. Ushbu talablar asosida o'qitilgan "Jihozlarni ta'mirlash bo'yicha navbatchi chilangar" yo'nalishi bo'yicha 260, "Avtomobilarni ta'mirlash bo'yicha chilangar" yo'nalishi bo'yicha 269, jami 550 tinglovchi o'quv va amaliyot jarayonini tugatib, Navoiy kon-metallurgiya kompaniyasining markaziy kon boshqarmasida ishlayapti.

Monomarkazning yana bir yutugi shundaki, bugun aholiga va sayyohlarga eng zamonaviy, mukammal xizmat ko'rsatadigan kasb egalari tayyorlash uchun xalqaro hamkorligi ham yo'lga qo'ygan. Jumladan, qandolatchilik, oshpazlik, ofitsiantlik, santexnik va kosmetologik yo'nalishlarda Turkiyadan malakali mutaxassislar jalb etilgan holda o'quv va amaliyot jarayonlari tashkil etildi. Mahalliy mutaxassislar ham jahon standartlariga mos uslublardan foydalanilgan holda kasb o'rgatmoqda.

Navoiy yildan-yilga turizm va investitsiya jozibadorligi oshib borayotgan hududlardan biri sanaladi. Zamonaviy mehmonxonalar, oshxonalar va boshqa xizmat ko'rsatish shoxobchalari soni ham ortib bormoqda. Ularning o'ziga xos dizayni va qulay sharoiti bilan bir qatorda betakror ta'mimga ega milliy va

xorijiy taomlari ham kishini o'ziga jalb etadi. Talabdan kelib chiqib, fuqarolarga oshpazlik kasbini egallashga bo'lgan ishtiyoq ham yuqori. Monomarkazda bu borada o'ttiz ikki yillik tajribaga ega, hamon izlanish va sohaga yangiliklarni joriy etishdan to'xtamaydigan oshpaz Farhod Beknayeving tinglovchilarga kasb mahoratini o'rgatadi.

Shu yo'nalishda o'qiyotgan fuqarolarga birinchi navbatda, milliy taomlarni tayyorlashni o'rgatamiz. Sababi ular turli turizm maskanlari va mehmonxonalarda faoliyat olib borganida xorijiy mehmonlarga milliy taomlarimiz haqida ma'lumot berish bilan birga ularga maromida tayyorlab berishlari lozim. Chunki bu, sayyohlarda yuritmiz haqida iliq taassurot qoldirishida muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Shuningdek, xorijiy taomlar, shirinliklar va salatlar tayyorlash bo'yicha ham o'qitamiz. Ushbu yo'nalishda o'qigan fuqarolarimiz orasida xususiy va oilaviy tadbirkorlikni yo'lga qo'yib, xalqimizga xizmat qilib kelayotganlari ham talaygina. Muhimi, barcha bitiruvchilarimizning bandligi ta'minlanmoqda, — deydi oshpazlik yo'nalishi bo'yicha mutaxassis Farhod Beknaye.

Bugungi kunda davlat tashkilotlaridan tashqari, har bir soha rivojida xususiy sektorning ulushi katta bo'lmoqda. Ayniqsa, tadbirkorlik sohasi yanada rivo-

Kurslarni tugatib, suhbatdan muvaffaqiyatli o'tganlar xorijda qonuniy mehnat faoliyati bilan shug'ullanmoqda. Shuningdek, oliy o'quv yurtlari talabalari va maktab o'quvchilari ham markazda xorijiy tillarni o'rganyapti.

Albatta, har bir ishning muvaffaqiyati natijada ko'rinadi. Uchquduq shahridan Navoiy shahriga ko'chib kelgan va ishsizlikdan qiyonlab, "Ishga marhamat" monomarkazida ayollar sartaroshligi sirlarini o'rganigan 29 yoshli Sevra Abdurahmatova bugungi faoliyatidan mamnun.

Ushbu markazda ayollar sartaroshligini o'rganganimdan keyin mahalla fuqarolar yig'ini ko'magida kredit olib, faoliyatimni yo'lga qo'ydim. Hozirda daromadim yaxshi. Kasb o'rganishim va bu orqali hayotimni yaxshilashida monomarkaz muhim o'rin tutdi. Muhimi, biz uchun yaratib berilgan bu imkoniyatlardan samarali foydalanish lozim, — deydi S.Abdurahmatova.

Yana bir jihat. Ushbu monomarkaz mutaxassislari tomonidan jazoni ijro etish muassasalarida kasbga o'qitish tashkil etilgan. Ya'ni Navoiy maxsus prokuraturasi, Navoiy shahar "Ishga marhamat" monomarkazi va beshinchi mintaqaviy muvofiqlashtirish markazi o'rtasida tuzilgan hamkorlik memorandumiga ko'ra, 30 yoshgacha bo'lgan 140



dan ziyod mahkum ham mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan 9 ta yo'nalishda kasb-hunarlariga o'rgatilmoqda. Bu esa ularning jazo muddati tugagandan keyin sog'lom hayotga qaytishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu memorandum asosida monomarkazning texnik, xizmat ko'rsatish va qurilish sohalariga mutaxassislar mahkumlarga kasb-hunar o'rgatishmoqda. Ular santexnik, payvandlovchi, avtomobil va maishiy texnikalarni ta'mirlash, kran mashinisti, tokarlik, suvoqchilik, bo'yochilik, alyumin profillar o'rnatish, mebel jihozlarni yasash va ta'mirlash, sartaroshlik va oshpazlik kabi yo'nalishlarda o'qitilmoqda, — deydi Navoiy shahridagi "Ishga marhamat" monomarkazi bo'lim boshlig'i G'iyos Jo'rayev.

Darhaqiqat, ayni paytda monomarkazning malakali mutaxassislari tomonidan o'qitilayotgan nazariy va amaliy mashg'ulotlarda o'zlari tanlagan kasbning mohir ustasi bo'lib yetishaman, kelajakda shu kasb orqali daromadga ega bo'laman degan mahkumlar katta qiziqish bilan o'qishni davom ettirmoqda. Buning uchun muassasada barcha sharoit yaratilgan.

Bir so'z bilan aytganda, inson qadri va manfaatlari, xalqimizning farovon turmush kechirishi, hayotidan va davlatdan rozi bo'lib, baxtli yashashlari yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlarni jazo muddatini o'tayotgan shaxslar ham his etmoqda. Bu esa u kim bo'lishidan qat'i nazar, shu vatanning farzandi ekani, imkoniyatlardan bebahra bo'lmasligi, shu bilan bir qatorda, yurt taraqqiyoti yo'lida, vatan, xalq uchun xizmat qilishi lozimligini anglatib turadi.

Bir so'z bilan aytganda, inson qadri va manfaatlari, xalqimizning farovon turmush kechirishi, hayotidan va davlatdan rozi bo'lib, baxtli yashashlari yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlarni jazo muddatini o'tayotgan shaxslar ham his etmoqda. Bu esa u kim bo'lishidan qat'i nazar, shu vatanning farzandi ekani, imkoniyatlardan bebahra bo'lmasligi, shu bilan bir qatorda, yurt taraqqiyoti yo'lida, vatan, xalq uchun xizmat qilishi lozimligini anglatib turadi.

Bir so'z bilan aytganda, inson qadri va manfaatlari, xalqimizning farovon turmush kechirishi, hayotidan va davlatdan rozi bo'lib, baxtli yashashlari yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlarni jazo muddatini o'tayotgan shaxslar ham his etmoqda. Bu esa u kim bo'lishidan qat'i nazar, shu vatanning farzandi ekani, imkoniyatlardan bebahra bo'lmasligi, shu bilan bir qatorda, yurt taraqqiyoti yo'lida, vatan, xalq uchun xizmat qilishi lozimligini anglatib turadi.

**G'olib ABDUSALOMOV,**  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

HUDUDLAR HAYOTI

KONTEYNERDA — TIBBIYOT PUNKTI

Samarqand viloyatining olis tumanlaridan biri – Qo'shrabotda konteynerda joylashgan yangi tibbiyot punktlari qishloq aholisiga xizmat ko'rsata boshladi.



Tuman markazidan 80 kilometr uzoqlikdagi Oqchopsoy qishlog'ida shunday muassasalardan biri 18 xil tibbiy uskunalar hamda konditsioner bilan jihozlangan bo'lib, ayni paytda 600 kishiga xizmat qilayapti.

Ushbu tumanidagi 140 mingga yaqin aholining aksariyat qismi yarim cho'l va yassi tepaliklar bag'rida, bir-biridan uzoq

masofada joylashgan uylarda istiqomat qiladi. Bu esa shifokorlar va patronaj hamshiralari uchun anchagina qiyinchilik yuzaga keltirishi tabiiy. Shuning uchun ham mazkur loyihaga qo'l urildi.

Shu paytgacha qishloq aholisi malakali tibbiy yordam yoki maslahat olish maqsadida o'nlab chaqirim yo'l bosib tuman markaziga kelishga majbur

edi, — deydi tuman tibbiyot birlashmasi boshlig'i Ulug'bek Shamsiyev. — Endilikda bu muammo ham o'z jiboyi yechimini topdi.

Suhbatdoshimizning aytishicha, "Qishloq shifokori" dasturiga binoan, tumanga 12 nafar umumiy amaliyot shifokori taklif qilingan. Dasturga ko'ra, bu yerga kelgan shifokorlar yuqori maosh, ipoteka imtiyozlari va turli xil ustama bilan ta'minlanadi. Ammo shunday bo'lishiga qaramasdan, bunday sharoitda ishlashga rozi bo'layotgan mutaxassislar ko'p emas. Aytish joizki, so'nggi 2 oy ichida "Obod qishloq" davlat dasturi ijrosi doirasida Toz, Oqmachit, Qo'shrabot va Pangat qishloqlarida ham yangi oilaviy poliklinikalar foydalanishga topshirildi.

Bundan tashqari, tuman markaziy shifoxonasining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash uchun joriy yilda 1,2 milliard so'm miqdorida byudjet mablag'ari ajratilgan edi. Bu mablag'lar shifoxonani elektroforez, fizioterapevtik bochka, kardiomonitor kabi zamonaviy tibbiy uskuna va jihozlar bilan ta'minlash uchun sarflandi.





MULOHAZA



Ahmadjon MELIBOYEV, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist

Boshlanishi 1-betda

Futbol o'yinining muhim bir qoidasi bor: qaysi jamoaning yarim himoyasi kuchli bo'lsa, ular o'yin markazini nazoratga olib, jamoa g'alabasiga jiddiy hissa qo'shadi.

Birinchi o'qigan kitobimni eslay olmayman, ammo tinglaganim yodimda qolgan (u paytlari kitob bugungiday mo'l emasdi). Ular kattalar tomonidan uzoq qish tunlari jamoa bo'lib o'qiladigan, bir kishi qiroat bilan o'qisa, boshqalar jon quloqlari bilan eshitadigan jangomalar, xalq dostonlari, qasida va baxshidalar edi.

Maktabda adabiyot o'qituvchilarimiz qanday kitob o'qiyotganimizga jiddiy e'tibor berishardi. Ularning tavsiyasiga ko'ra, "Cho'loq laylak", "Uch og'a-ini botirlar", "Maqtanchoq quyon", "Rostgo'y bola", "Tulki bilan turna" kabi ertaklarni uyda o'qib kelib, dars payti bir-birimizga aytib, bilganimizcha muhokama qilardik.

Faqat shular emas, kitob o'qib katta bolgan bolalar jonivorlarga ozor yetkazmaydi, guillami yulmaydi, ko'challarni mehr bilan parvarish qiladi.

BUGUN KITOB O'QIYOTGAN BOLA ertaga millatning najotkori bo'ladi

Shunday qilib, tuyaqush bilan qoplon do'st bo'libdi. Oradan ko'p vaqt o'tibdi. Bir kuni tuyaqush qoplonni sinamoqchi bo'lib, yolg'ondan, "Voy dod, o'lyapman, meni qutqar, do'stim", deb qoplonni yordamga chaqiribdi.

Shu ertakni muhokama qilayotganimizda, hammamiz: "Yolg'onchi bilan do'stlash-maslik kerak", deganmiz. O'qituvchimiz bo'lsa: "Ovqatni shoshilib yesa shunday bo'ladi, chayna-aab yeyish kerak", degandi.

Shu o'rinda o'zim kuzatgan bir holatga to'xtalmoqchiman. Yoshligidan kitob o'qishga o'rgatilgan va bunday fazilatan mutalaga yiroq bola xarakterida keskin farq bor.

Faqat shular emas, kitob o'qib katta bolgan bolalar jonivorlarga ozor yetkazmaydi, guillami yulmaydi, ko'challarni mehr bilan parvarish qiladi.

yutardim", degan so'zlari ta'sirida kattalariga salom beradi. Shundan kelib chiqib, har bir mamlakat yoshlarining ma'naviy-axloqiy darajasini u yerdagi kitobxonlik darajasiga qarab ham aniqlash mumkin.

Shu ertakni muhokama qilayotganimizda, hammamiz: "Yolg'onchi bilan do'stlash-maslik kerak", deganmiz. O'qituvchimiz bo'lsa: "Ovqatni shoshilib yesa shunday bo'ladi, chayna-aab yeyish kerak", degandi.

Shu o'rinda o'zim kuzatgan bir holatga to'xtalmoqchiman. Yoshligidan kitob o'qishga o'rgatilgan va bunday fazilatan mutalaga yiroq bola xarakterida keskin farq bor.

Faqat shular emas, kitob o'qib katta bolgan bolalar jonivorlarga ozor yetkazmaydi, guillami yulmaydi, ko'challarni mehr bilan parvarish qiladi.

kerak", deyishardi. Zo'r bo'lish kimga yoqmaydi deysiz, qo'limizga nima tushsa, tanlamay o'qiyverganmiz.

Toshkent Davlat dorilfununiga (hozirgi O'ZMU) o'qishga kelgach, ko'plab salmoqli kitoblarni domlalarimizdan baho olish uchun o'qishga to'g'ri keldi.

Shu o'rinda o'zim kuzatgan bir holatga to'xtalmoqchiman. Yoshligidan kitob o'qishga o'rgatilgan va bunday fazilatan mutalaga yiroq bola xarakterida keskin farq bor.

Faqat shular emas, kitob o'qib katta bolgan bolalar jonivorlarga ozor yetkazmaydi, guillami yulmaydi, ko'challarni mehr bilan parvarish qiladi.

haqida gap boshlansa, "Iqronoma"ni tilga olaman. Uning har jumlasini fikr-mushohada, fikr-inkor, fikr-tasdiq, fikr-davtdan iborat.

Shu o'rinda o'zim kuzatgan bir holatga to'xtalmoqchiman. Yoshligidan kitob o'qishga o'rgatilgan va bunday fazilatan mutalaga yiroq bola xarakterida keskin farq bor.

Shu o'rinda o'zim kuzatgan bir holatga to'xtalmoqchiman. Yoshligidan kitob o'qishga o'rgatilgan va bunday fazilatan mutalaga yiroq bola xarakterida keskin farq bor.

Faqat shular emas, kitob o'qib katta bolgan bolalar jonivorlarga ozor yetkazmaydi, guillami yulmaydi, ko'challarni mehr bilan parvarish qiladi.

sa", "Iqronoma", "O'tkan kunlar", "Boburnoma" shunday asarlar sirasiga kiradi.

Maqolalarimdan birida adabiyotni sog'in sigirga o'xshatib olgan ba'zi qalamkashlarni tanqid qilib, bemaza kitoblaganlarning qisqara, hademay me'daga tegadi, deya o'zimga o'zim dalda bergandim.

Insoniyat tarixida kelgusi avlodlar e'tibor berishi zarur bo'lgan saboqlar ko'p. Ulardan biri shuki, yosh avlod tarbiyasini bir zum bo'lsin o'z holiga qo'yib bo'lmaydi.

Kitob va kitobxonlik haqida gap ketganda, ayrim kuzatuvchilar "Qo'oz kitoblarining umri tugaydi, kitobxonlik kompyuter zimmasiga yuklanadi", degan gapni juda ishonch bilan aytmoqda.

Kitob va kitobxonlik haqida gap ketganda, ayrim kuzatuvchilar "Qo'oz kitoblarining umri tugaydi, kitobxonlik kompyuter zimmasiga yuklanadi", degan gapni juda ishonch bilan aytmoqda.

TURIZM

Vertolyotda Farg'ona bo'ylab sayohat

YOKI HUDUD JOZIBADORLIGINI YANADA OSHIRISH UCHUN NIMALAR QILISH LOZIM?

Farg'ona — ko'hna va betakror, qadim va navqiron maskan. Go'zal tabiati, musaffo havosi, unumdor yeri bilan asrlar davomida hayratini ko'z-ko'z qilib kelayotgan ajib maskanda muqaddas qadamjo va ziyoratgohlar, tarixiy obidalar o'timish va yorqin kelajakdan darak beradi.

Muzaffar TEMIROV, Farg'ona viloyati Turizm boshqarasini boshlig'i o'rinbosari

Keyingi yillarda ajdodlarimizdan qolgan boy ma'naviy-madaniy yodgorliklar, osori-atiqalar, tabiiy maskanlarga dunyo hamjamiyatining qiziqishi ortib bormoqda.

Marg'ilon ipak matolari, Rishton kulolligi, Qo'qon yog'och o'yimkorlik namunalarining o'timish va bugungi kunlari asrlar davomida dunyo hamjamiyatini o'ziga maftun etib keladi.

Prezidentimiz raisligida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida turizm va madaniy meros imkoniyatlarini to'liq ishga solish,

"Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida kuzgi ko'chat ekish mavsumini samarali o'tkazish bilan bog'liq vazifalar ijrosiga alohida e'tibor qaratildi.

Bu bejiz emas. Yutuqlar bor, ammo sohada hali ishga solinmagan imkoniyatlarimiz ko'p.

Viloyatimizda 2023-yilning o'tgan davrida turizm yo'nalishida qiymati 2,3 trillion so'mlik 240 ta loyihani ishga tushirish orqali sayyohlarga xizmat ko'rsatuvchi turoperator va turagentlar sonini



96 taga yetkazish, 4 492 yangi ish o'rni yaratish belgilangan. Bugunga qadar esa umumiy qiymati 302 milliard 635 million so'mlik 45 ta loyiha ishga tushirilib, 821 yangi ish o'rni ochildi.

Viloyatga turizm oqimini yanada oshirish maqsadida eko, agro, ekstremal, tibbiy, ko'ngilochar va boshqa turistik maskanlar tashkil etish borasida yangi loyihalar amalga oshirilmoqda.

umumiy qiymati 130 milliard so'mlik turizm va hunarmandlik markazi tashkil etilyapti. Bu yerda zamonaviy mehmonxona, hunarmandlar va savdo markazi, bolalar o'yin-gohi va boshqa ko'ngilochar xizmatlar tashkil etiladi.

"Uzbekistan Airports" AJ va "Silk Avia" aviakompaniyasi bilan hamkorlikda Olmota, Ostona, Jidda, Urumchi, Seul, shuningdek, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Urganch, Navoiy va Termiz yo'nalishlarida to'g'ridan-to'g'ri yangi aviaqatnovlar ochish ishlari olib borilmoqda.

Eksklar hududlar hisoblangan So'x tumani, Rishton tumanining Cho'ng'ara va Farg'ona tumanining Shohimardon qishloqlariga Qirg'iziston orqali ID pasport bilan o'tish tizimi joriy qilingan tashrif buyurayotgan sayyohlar uchun juda katta yengilliklar yaratdi.

Hali ishga solinmagan imkoniyatlarimiz ko'p. Xususan, mahalliy va xorijiy investitorlarni hududga jalb qilish, Shohimardon qishloqlarida yirik turizm zonalarini tashkil etish, Farg'ona shahridan vertolyot qatnovini yo'lga qo'yish, transport sohasida qo'shimcha



Bu ko'rsatkichlarni yanada oshirish imkoniyati mavjud. Ayni kunda Shohimardon qishlog'i hududidagi davlat ixtiyorida qishloqda to'g'ri yangi aviaqatnovlar ochish ishlari olib borilmoqda.

Hali ishga solinmagan imkoniyatlarimiz ko'p. Xususan, mahalliy va xorijiy investitorlarni hududga jalb qilish, Shohimardon qishloqlarida yirik turizm zonalarini tashkil etish, Farg'ona shahridan vertolyot qatnovini yo'lga qo'yish, transport sohasida qo'shimcha

sharoit yaratilib, vertolyotda sayohat qilish turistik xizmat turini joriy etish, ekstremal turizmni rivojlantirish bilan bog'liq dolzarb masalalarda e'tibor qaratishimiz muhim.

Videoselektor yig'ilishida xato va kamchiliklardan to'g'ri xulosa chiqarish, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish borasida bildirilgan taklif va mulohazalar turizm salohiyatini oshirish, turlarini ko'paytirish, bu yo'nalishda yangi loyiha va tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash imkoniyatini beradi.

Publication information including contact details for the newspaper, publisher, and printer. Includes phone numbers, website, and address.